4s ◆AYOLLAR qanoti

Prezidentimiz muhtojlarga subsidiyalar ajratilsin, deyaptilar, lekin quyida bu borada tanish-bilishchilik, korrupsiyaga duch kelyapmiz. Subsidiyalar haqiqiy muhtojlarga yetib bormayapti.

№ 19 (1251) 2024-yil
22-may, chorshanba

ISSN 2010-7714

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

milliy tiklanish

Adadi – 5 263

1995-yil 10-iyuldan chiqa boshlagan www.mt.uz | milliytiklanish2022@umail.uz

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi

«SADOI TURKISTON»
nega tatar ziyolilarining e'tiborini tortgan edi?

6s

ASHXOBODDA
Alisher Navoiy haykali o'rnatildi

4s

◆ Deputat minbari

3s

PARLAMENT
yoshlar masalasiga yuzaki qarab turolmaydi

OLIY MAJLIS

Qonunchilik palatasining kecha bo'lib o'tgan yalpi majlisida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir dolzarb masalalar qatori yoshlar hamda Yoshlar ishlari agentligi faoliyatiga doir masala ham muhokama qilindi.

2s

«MILLIY TIKLANISH»

Monitor ortidagi
QORA KUCHLAR

Tadqiqotlar 2024-yilda 1,31 milliard, ya'ni dunyo aholisining 16,35 foizi video o'yinlarga mukkasidan ketganini ko'rsatmoqda. 2027-yilda bu ko'rsatkichning 17,7 foizga yoki 1,47 milliardga yetishi kutilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, video o'yinlar inson hayotiga jadal kirib kelayotgan illatga aylanyapti. Dunyo bo'yicha jami o'yinchilarning 36 foizini 18-34 yoshdagilar, 24 foizini esa 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etyapti.

6s

ANONSLAR

◆SAYLOVOLDI dasturida



2s

PARTIYANING
yana bir tashabbusi amalga oshishiga bir qadam qoldi

100

Qadimiy san'at va madaniyatimizdan darak beruvchi muzey O'zbekiston Davlat san'at muzeyining qariyib

-yildan ortiq faoliyati davomida o'z tarixiy va madaniy merosimizga hurmat ruhini oshiradigan, shuningdek, ularga ajdodlarimiz madaniyati darajasini tarixiy dalillar bilan isbotlab beruvchi ashyo va kolleksiyalar namoyish etib kelinmoqda.

4-sahifa

MAISHIY ZO'RAVONLIK QILGAN
4 343 NAFAR SHAXS MA'MURIY JAVOBGARLIKKA TORTILDI

7s

ILMI HIKMATNI
QADRLASH YO'LIDA

5s

» GERMANIYADA O'ZBEK ADIBLARI IJODIGA BAG'ISHLANGAN TADBIR O'TKAZILDI 2s

» AGAR... SENI BOSHQARISHLARIGA TAYYOR TUR 7s

O'ZBEKISTON DELEGATSIYASI ISHTIROK ETADI

Eron poytaxti Tehron shahrida bo'lib o'tadigan marhum Prezident Ibrohim Raisiy bilan vidolashuv marosimida O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etadi. Delegatsiyamizga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nurdinjon Ismoilov boshchilik qiladi.

2024-yilning 22-may sanasidan. Manba: cbu.uz

☑ AQSH dollari 12708.86. ☑ 1 YEVRO 13817.07. ☑ 1 Rossiya rubli 140.54. ☑ 1 Angliya funt sterlingi 16168.21. ☑ 1 Yaponiya iyenasi 81.41.

PARLAMENT

(Boshlanishi 1-sahifada)

yoshlar masalasiga yuzaki qarab turolmaydi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kecha bo'lib o'tgan yalpi majlisida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir dolzarb masalalar qatori yoshlar hamda Yoshlar ishlari agentligi faoliyatiga doir masala ham muhokama qilindi.

Majlisda "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari, partiya yetakchisi Alisher Qodirov so'zga chiqib, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil qiladigan sanoqli davlat ekanini ta'kidladi. Uning aytishicha, Davlat rahbarining biron-bir uchrashuv yoki yig'ilishlari yo'qki, yoshlar masalasi muhokama etilmasa.
Yoshlar ishlari agentligi oldiga ham bu borada jiddiy vazifalar qo'yilgan va tan olishimiz kerakki, bugun ularni bekamu ko'st amalga oshirish oson bo'lmayapti. Qayd etish joizki, Agentlikning yoshlarni ta'lim-tarbiya olishga undovchi, ilmga, kitobxonlikka jalb etuvchi ko'plab loyihalari o'z samarasini beryapti.

– Lekin amalga oshirilgan ishlar mohiyatini xalqimizga yetkazish uchun Agentlikning ovozi barcha joylarga ham yetmasligi mumkin. Parlament esa ana shu ishlarni keng jamoatchilikka yetkazishi, shu bilan birga, yoshlar masalasida qanday muammolar bor va ularni yechishda qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirishda keng maydon hisoblanadi, – dedi Alisher Qodirov.
Bir kun avval esa ayni shu masala «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining bosh mavzusiga aylangan edi. Unda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning «Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishga, shuningdek, ular bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida»gi axborotini eshitish masalasi ko'rib chiqilgandi.
Fraksiya a'zosi Umida Rahmonovaning fikricha, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham yoshlarning huquq va manfaatlari alohida moddalar bilan muhrlab qo'yilgan.
Yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlardagi muammolarni hal etishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish maqsadida esa yaxlit infratuzilma yaratilgan. Jumladan, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tashkil etilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida esa Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya ishlayapti.
Shuningdek, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, muammolarga yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilib, unga keng vakolatlar berilgan.
Davlat rahbari tashabbusi bilan yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish va ular bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqilib, har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgan.
Prezident farmoni bilan «O'zbekiston – 2030» strategiyasining «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham yoshlar muammolarini hal qilish va ularning salohiyatini yuzaga chiqarish, talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali yoshlar bandligini ta'minlashga doir vazifalar belgilangan.
– Shundan kelib chiqib, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ular bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan Yoshlar ishlari agentligi direktorining axborotini eshitish taklifi ilgari surildi, – dedi Umida Rahmonova.
Fraksiya yig'ilishida yana bir muhim masala muhokama qilindi. Bu Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy yo'nalishi bo'lgan tarbiya masalasidir. Ma'lumki, ilmiy kuzatish va tadqiqotlar inson jami hayoti davomida oladigan ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishini ko'rsatmoqda. Bu davrda bola dunyoni anglay boshlaydi. Ona tilini, qadriyatlarni o'zlashtiradi, ota-onasi, oilasi, mahallasi, ya'ni Vataniga mehri uyg'onadi. Albatta, bunda oilaning o'rni muhim. Ammo bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hissasi ham alohida.
Shu bois, so'nggi yillarda uzluksiz ta'limning poydevori sifatida maktabgacha ta'lim tizimiga ustuvorlik berilyapti. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning boshlang'ich bo'g'iniga jalb etish, tizimda nodavlat sektor ulushini oshirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilganidan keyin bog'chalar soni ortib, yurtimizdagi 3 million nafarga yaqin 3-7 yoshli bolalarning 74 foizidan ortig'i qamrab olindi.
«O'zbekiston – 2030» strategiyasida bu ko'rsatkichni 2026-yilgacha 80 foizga, 2030-yilgacha esa 100 foizga yetkazish maqsad qilingan.
Ma'lumotlarga qaraganda, bugun mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami 33 942 ta bog'chaning 27 162 tasi nodavlat ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Ularning 24 mingdan ortig'i oilaviy shaklda, 1400 ga yaqin davlat-xususiy sheriklik asosida ishlayapti. Biroq aholi murojaatlari, joylarda deputatlar tomonidan olib borilayotgan parlament nazorati tadbirlari, saylov okruglaridagi uchrashuvlarda mazkur ta'lim tashkilotlariga metodik yordam berish, sohaga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish hamda malakali pedagog kadrlarni jalb etishda bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda.
Eng katta kamchilik esa sohada faoliyat yuritayotgan 42 313 nafar rahbar va pedagoglarning atigi 19,7 foizi oliy, 7,8 foizi tugallanmagan oliy va qolgan 72,5 foizi o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar ekanligidadir. Ayniqsa, oilaviy bog'chalarda malakali pedagog kadrlar yetishmayapti.
Bu muammolar ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmayapti. Ma'lumki, bog'cha maktabgacha ta'lim emas, tarbiya maskanidir. Bog'chada bolalarni saqlab turish emas, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tizimli tarbiya berish kerak. Ana shunday talablar qo'yilayotgan bir paytda tizimda oliy ma'lumotli tarbiyachilar bor-yo'g'i 25-30 foizni tashkil qilyapti, xolos. Bu sohada 75 bolaga bitta oliy ma'lumotli tarbiyachi to'g'ri kelyapti, deganidir. Deputatlarning fikricha, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bunday kadrlarni tayyorlashga yetarlicha e'tibor qaratmayapti.
Fraksiya a'zolari yuqoridagilardan kelib chiqib, Maktabgacha ta'lim agentligi rahbariga sohadagi real vaziyatni o'rganish uchun Parlament so'rovi yuborishga qaror qildilar.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Saylovoldi dasturida

PARTIYANING

YANA BIR TASHABBUSI AMALGA OSHISHIGA BIR QADAM QOLDI

Ma'lumki, islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni ko'zda tutadi. Ya'ni, u sheriklik asosidagi moliyalash tizimi bo'lib, daxlsizlik, shartnoma majburiyatlariga rioya qilish, tavakkalchiliklar, foyda va daromadlarni adolatli taqsimlash, iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy adolatning muvofiqlik tamoyillariga asoslanadi. Axloqiy me'yorlarga – eng avvalo, halollikka rioya qilish mazkur tizimning fundamental asosidir.

So'nggi yillarda dunyoda Islomiy moliya tizimiga bo'lgan qiziqish keskin kuchayayotgani ham shundan. Hatto ushbu tizim musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham rivojlanayotgani e'tiborga molik. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning 20 dan ortiq banklarida mijozlarga islom moliyasi mahsulotlari va xizmatlari taklif qilinyapti. Umuman, bugunga kelib, 300 dan ziyod islom banki va moliya muassasalarining aktivlari 2,5 trillion AQSH dollaridan oshib, yiliga 15-20 foizga o'smoqda.

Ana shulardan kelib chiqib, O'zbekistonda ham musulmon davlatlardagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan tashkilotlar mablag'ini milliy iqtisodiyotimizga, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga jalb etish to'g'risidagi tashabbus ko'pchilikni quvontirayotgan edi. Ana shularni hisobga olib, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2020-2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida ham an'anaviy moliya tizimiga muqobil ravishda bank va tadbirkorning sherikchiligiga asoslangan yangi kreditlash mexanizmini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari surilgan edi.

Shuni alohida qayd etish joizki, mamlakatimiz aholisining 90 foizidan ortig'i Islomga e'tiqod qiladi va foiz bilan bog'liq qarashlari tufayli 15-20 foizga yaqin aholi an'anaviy kreditlash tizimidan foydalanmayapti. Muqobil kreditlash tizimi orqali esa mazkur qatlam ham to'liq qamrab olinishi mumkin. Yangicha yondashuvlar shuningdek, ana shu qatlam vakillarining omonatlarini iqtisodiyotga jalb etish, ulardan esa oqilona foydalanish uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Ya'ni, bu orqali «zaxiradagi» ichki investitsiyalarni iqtisodiyotimizning o'sishiga jalb qilish, xufyona iqtisodiyot salmog'ini kamaytirish, eng muhimi, tadbirkorlikni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Kuni kecha platformauzb telegram kanalida kamida uchta bankda islomiy moliyalashtirish tartibi joriy qilinishi reja qilinayotgani e'lon qilindi.

Markaziy bank raisi o'rinbosari Behzod Hamrayevning aytishicha, Islomiy banking to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqildi va u joriy yilda parlamentga kiritiladi. Yaqin vaqt ichida esa mikromoliya tashkilotlarida islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar ham qabul qilinishi kutilmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, Davlatimiz rahbarining g'oya va tashabbuslari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida kamida uchta tijorat bankida islomiy moliyalashtirish mezonlari va tartiblarini joriy etish hamda islomiy moliyalashtirishning qonunchilik bazasini shakllantirish vazifasi qat'iy belgilab qo'yilgan edi.

Prezidentimizning 2022-yilning avgusti va o'tgan yili bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarida ham shu masala (islomiy moliya — tahr.) ko'tarilgan, o'shandan beri bu borada turli vazirliklardan iborat ishchi guruh ish olib borayotgan edi.

Ko'rinib turibdiki, nihoyat ana shu tashabbus amaliyotga joriy etilmoqda. To'g'ri, bu yangi va murakkab vazifa bo'lib, ko'plab qonun hujjatlariga, jumladan, garov to'g'risidagi, sudlar to'g'risidagi, banklar to'g'risidagi va Markaziy bank to'g'risidagi qonunlarga o'zgartishlar kiritishni talab qiladi. Ammo qayd etish joizki, har qanday qiyinchiliklar bo'lmasin, islomiy moliyalashtirish tartibining joriy etilishi milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

Hamdam NIYOZOV
tayyorladi.

✓ Adabiy kecha

Germaniyada o'zbek adiblari ijodiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi

Germaniyaning Mayns universitetida birinchi o'zbek romannavisi Abdulla Qodiriy tavalludining 130 yilligi va shoir Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligi munosabati bilan adabiy kecha tashkil etildi.

Mamlakatimizning Germaniyadagi elchixonasi tashabbusi bilan Yohann Gutenberg nomli Mayns universiteti Slavyan tillari, Turkologiya va Boltiqbo'yi davlatlari tillarini tatbiq etish instituti ko'magida uyushtirilgan tadbirda oliygoh professor-o'qituvchilari, o'zbek tilini o'rganayotgan germaniyalik talabalar, universitetda tahsil olayotgan va ilmiy tadqiqot olib borayotgan vatandoshlar ishtirok etdi.

Adabiy kechada oliy o'quv yurti Turkologiya kafedrasi boshlig'i professor Yulian Rench o'zbek adabiyoti taniqli namoyandalari xotirasi Germaniyadagi turkologiya va o'zbek tili o'rgatiladigan ta'lim muassasalarida e'zozlanishi nafaqat mamlakatlarimiz hamkorligini rivojlantirish, balki xorijda o'zbek tili va adabiyotiga qiziquvchilar safini kengaytirishiga ham xizmat qilishini ta'kidladi.

Tadbirda mamlakatimizdan borgan mutaxassislar, universitet o'qituvchilari Abdulla Qodiriy va Muhammad Yusuf ijodi, ular qoldirgan adabiy meros haqida ilmiy ma'ruzalarini taqdim qilishdi.

Shuningdek, tadbirda ijodkorlarimiz asarlari, she'rlaridan parcha o'qildi. "O'tgan kunlar" romani asosida tayyorlangan sahna ko'rinishi, milliy raqslar namoyishi barchaga manzur bo'ldi.

Ayni kunlarda yurtimiz tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni xorijda keng targ'ib qilish hamda mamlakatimiz nufuzini oshirish maqsadida elchixonamiz tomonidan Germaniyaning o'zbek tili va adabiyoti o'rgatiladigan oliy ta'lim muassasalarida atoqli o'zbek adiblari ijodiga bag'ishlangan adabiy kechalar o'tkazilmoqda.

N.ZIYODULLAYEVA. O'zA

✓ Kuting!

MAVLON UMRZOQOV

kecha va bugun haqida

Kelgusi sonlarda

> Milliy muzeylar fondida elektron ma'lumotlar bazasini yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolayotir. To'g'ri, Fond ma'lumotlar bazasi, muzeylar media maydonini yaratish murakkab va uzluksiz jarayondir.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
22-may, 2024-yil
№19 (1251) chorshanba

MUZEYLAR

MILLIY QADRIYATLARIMIZ KO'ZGUSI

O'zbekiston-da muzey-shunoslikni rivojlantirish, muzeylarning moddiy-texnika bazasini innovatsion texnologiyalar asosida mustahkamlash, ularning moddiy fondini boyitish hamda infratuzilmasini kengaytirish "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining ustuvor vazifalaridan biridir.

Aytish kerakki, Milliy muzeylar fondida elektron ma'lumotlar bazasini yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolayotir. To'g'ri, Fond ma'lumotlar bazasi, muzeylar media maydonini yaratish murakkab va uzluksiz jarayondir. Ammo hozir respublikamizda ro'yxatdan o'tgan 130 dan ziyod muzey faoliyat yuritayotganini hisobga olsak, elektron ma'lumotlar bazasini yaratish juda zarur vazifa ekani oydinlashadi.

Tan olish kerak, so'nggi yillarda mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga faol integratsiyalashuvi natijasida ilmiy-madaniy-tarixiy tafakkur yangilanmoqda. Bu jarayonda esa tarixiy ildizlarni xalqning san'at va hunarmandchilik namunalaridan izlash, muzeylarning xalqaro imijini yaratish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bilamizki, dunyoning yirik muzeylari, ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida san'at muzeylarining shakllanish tarixi, rivojlanishi va istiqboli bilan bog'liq masalalarni har tomonlama o'rganish zamonaviy muzeyshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, muzey faoliyatining ilmiy tadqiqi, tarixiy ahamiyati, uning ekspozitsiyalarini yaratish, fond kolleksiyalarini to'plash, rivojlantirish hamda muzey kolleksiyalarini saqlash, ta'mirlash, kelajak avlodga bus-butun holatda yetkazish bilan bir qatorda, ularning dunyo hamjamiyatiga keng targ'ib etish orqali muzeyning yorqin imijini shakllantirish mumkin bo'ladi. Xalqaro darajadagi ko'rgazmalar natijasida esa ajdodlarimiz tarixi, milliy qadriyatlarimiz, bebaho yuksak darajadagi madaniyatimiz, yurtimizning turizm salohiyati va ijobiy islohotlarimiz natijalarini keng namoyish etishga erishamiz.

Shu o'rinda 2021-yilning 9-dekabrida Davlatimiz rahbarining «Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 36-sonli qarori qabul qilinganini, unda Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish, xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, jamg'armaga ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi etib qayta tashkil etilganini alohida ta'kidlash joiz. Jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri, madaniyatlararo ijodiy muloqotni yo'lga qo'yish va o'zbek san'atining jahon badiiy va madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko'maklashish, shuningdek, mamlakatimizning madaniy va ilmiy-texnik salohiyati hamda raqobatbardoshligi bilan bog'liq jihatlarni namoyish etishdan iborat edi. Qadimiy san'at va madaniyatimizdan darak beruvchi muzey O'zbekiston davlat san'at muzeyining qariyib 100 yildan ortiq faoliyati davomida o'z tarixiy va madaniy merosimizga hurmat ruhini oshiradigan, shuningdek ularga ajdodlarimiz madaniyati, darajasini tarixiy dalillar bilan isbotlab beruvchi ashyo va kolleksiyalar namoyish etib kelinmoqda.

O'zbekiston Davlat san'at muzeyi o'z tarixi davomida noyob eksponatlarni fondga to'plash, muzey zaxiraxonasini boyitish borasida ham bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. XX asrning 70-yillarida (1969-1974) muzey uchun alohida bino qurilib, ekspozitsiya zallari tashkil etilgan, zaxiraxonalar eksponatlar saqlovi uchun qulaylashtirilgan edi. Keyingi olti yil davomida esa ashyo va kolleksiyalarning bus-butunligini ta'minlash fondlarda fidoyi muzeyshunoslar tomonidan yig'ilgan barcha ashyo va kolleksiyalarni kelajak avlodga yetkazish borasidagi ishlar butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, muzey eksponatlarini saqlash ilmiy o'rganish va namoyish qilish uchun yangi mexanizm yaratildi. Muzeydagi har bir ashyo va kolleksiya Kirim va Inventar kitoblar asosida xatlovdan o'tkazilib, har biri alohida san'at asari sifatida aniq va ravshan holda tartiblashtirildi. Ayni paytda muzey eksponatlarni to'liq hajmda Davlat katalogiga kiritish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, ilmiy xodimlar tomonidan chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, fondlarda saqlanayotgan noyob san'at asarlari va kolleksiyalari asosida har yili respublika va xalqaro miqyosda ilmiy maqolalar, tezislar e'lon qilinyapti. 2017-yilda esa «O'zbekiston Davlat san'at muzeyining xalq amaliy va me'morchilik san'ati namunalari: tarixi, manbaviy ahamiyati va saqlash muammolari» mavzusidagi amaliy loyiha asosida grant qo'lga kiritildi. 2018-yil O'zbekiston Davlat san'at muzeyining 100 yilligiga bag'ishlab «O'zbekiston madaniy merosi» turkumidan O'zbekiston Davlat san'at muzeyi to'plamlarida «O'zbekiston Davlat san'at muzeyi» nomli katalog chop etildi. Muzey jamoasi yurtimizda va xorijda tashkil etilayotgan turli ko'rgazmalar, tadbirlar hamda anjumanlarda ham faol ishtirok etmoqda. Markaziy Osiyoning san'at yo'nalishidagi eng yirik muzeylaridan biri bo'lgan O'zbekiston Davlat san'at muzeyida milliy tariximiz va dunyoning turli davlatlariga oid bo'lgan noyob san'at asarlari saqlanib, ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda.

> **HOZIR RESPUBLIKAMIZDA RO'YXATDAN O'TGAN 130 DAN ZIYOD MUZEY FAOLIYAT YURITAYOTGANINI HISOBGA OLSAK, ELEKTRON MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH JUDA ZARUR VAZIFA EKANI OYDINLASHADI.**

Yaqin tarixga nazar solsak, muzey 1993-yil aprelda Florensiyada (Italiya), 1995-yil aprelda Shtutgard shahridagi (Germaniya) Linden muzeyida, 2000-yil may oyida Germaniyaning Gonnaver shahrida, 2003-yil martda Vashingtonda, 2005-yil fevral, dekabr oylarida Yaponiyaning Fakuoka, Kagava, Ivaki, Okadzaki, Kiota shaharlari va boshqa davlatlarda o'zaro ikki tomonlama hamkorlik asosida Xalqaro ko'rgazmalarni o'tkazganini ko'ramiz. Muzeylarda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish o'z navbatida o'z tariximizning qanchalik boy ekanligini ochib beradi. Baski, muzeylar chinakam xazina, ajdodlarimiz hayoti, madaniy yodgorliklarimizni namoyish qiladigan manzil, makon ekan, ularda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ayni muddaodir.

Shuning uchun ham Prezidentimizning 2020-yil 26-maydagi «Madaniyat san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmonining tegishli bandi bilan O'zbekiston Davlat san'at muzeyi hamda O'zbekiston tarixi davlat muzeyida ixtisoslashgan ilmiy kengashlar va ilmiy-metodik kengashlar tashkil etildi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada jonlantiradi.

Vasila FAYZIYEVA,
O'zbekiston Davlat san'at muzeyi direktori,
xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashi deputati

✔ Nigoh

ISHING- KIBERFIRIBGARLIKNING ENG XAVFLI TURI

FISHING INTERNETDAGI FIRIBGARLIKNING BIR TURI BO'LIB, UNDA TAJOVUZKORLAR LOGIN, PAROL VA DEBIT/ KREDIT KARTA MA'LUMOTLARINI OLISH UCHUN YOLG'ONDAN FOYDALANADILAR.

Fishing uzoq tarixga ega bo'lib, u Internet va raqamli texnologiyalar bilan teppa-teng rivojlanadi.

Fishingning dastlabki faoliyati bu "klassik fishing" deb nomlanuvchi hujum edi. Bunda tajovuzkorlar o'zlarini bank yoki yirik korporatsiyalar vakili sifatida ko'rsatib, ommaviy elektron pochta xabarlarini yuborishadi va xabarni oluvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni so'rashadi.

Bu hujumlar ko'pincha foydalanuvchilarning bunday yolg'on usullardan bexabarligi va elektron pochta xavfsizligining yetarli emasligi tufayli muvaffaqiyatli yakunlanadi.

Shuni qayd etish joizki, Internet rivojlanishi va foydalanuvchilarning xabardorligi oshishi bilan fishing hujumlari ham murakkablasha boshladi. Ommaviy spam elektron pochta xabarlari o'rniga tajovuzkorlar "fokuslangan fishing" yoki "super-fishing" deb nomlanuvchi shaxsiy yondashuvlardan foydalana boshladilar. Ushbu hujumlar rasmiy tashkilotlarga yoki fuqarolarning shaxsiy xabarlariga taqlid qiluvchi soxta elektron pochta yoki veb-saytlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, tajovuzkorlar banklarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash ehtimoli haqida ogohlantiruvchi elektron pochta xabarlarini soxtalashtirishi va foydalanuvchidan soxta veb-saytda o'z hisob ma'lumotlarini taqdim etishini so'rashi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan fishing kiberhujumlarning eng keng tarqalgan va xavfli turiga aylandi. Anti-Phishing Working Group (APWG, Antifishing ishchi guruhi) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2023-yilning uchinchi choragidagina 999 956 ta fishing amalga oshirildi.

Fishingning kichik toifasi sifatida ovozli pochta yoki fishing soni 2023-yilning 1-choragidan 2023-yilning 3-choragigacha 40 foizga oshdi. 2023-yilning 3-choragida pul o'tkazmasi Biznes elektron pochta kelishuvi hujumlarida so'ralgan o'rtacha miqdor 164, 645 dollarni tashkil etdi, bu ikkinchi chorakdagi o'rtacha 293,359 dollardan 44 foizga kamroq. Ammo 3-chorakda pul o'tkazmalari bilan bog'liq hujumlar 55 foizga oshganligini ham unutmaslik kerak.

Yana bir fikr: ayni paytda, Moliya sektori eng ko'p hujumga uchrayotgan sektor bo'lib qolmoqda: jami hujumlarning 24,9 foizi. Ijtimoiy media kompaniyalariga qarshi hujumlar esa ikkinchi o'rinni egalladi – 18,9 foiz. Qayd etilishicha, eng halokatli fishing hodisalaridan biri 2017-yilda Equifax'ga uyushtirilgan hujum bo'lgan. Xakerlar 147 milliondan ortiq odamning shaxsiy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan kompaniya ma'lumotlar bazasiga kirish uchun xavfsizlik zaifligidan foydalanishgan. Ushbu hodisa shaxsiy ma'lumotlarning ommaviy ravishda sizib chiqishi natijasida odamlar uchun jiddiy oqibatlar keltirgan voqea bo'lgandi.

Ko'rinib turibdiki, fishingning bir nechta turlari bo'lib, ularning har biri foydalanuvchilarni aldash uchun turli usullar va strategiyalarni o'z ichiga olgan. Eng keng tarqalgan turi esa bu elektron pochta fishing hujumlari bo'lib, bunda hujumchilar go'yoki banklar, kompaniyalar yoki davlat idoralarining rasmiy xabarlarini yuborishadi. Ushbu elektron pochta xabarlarida foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlar so'raladi, shuningdek, soxta veb-saytlarga havolalar bo'lishi mumkin.

Fishingning yana bir keng tarqalgan turi bu ijtimoiy fishing bo'lib, firibgarlar foydalanuvchilarni aldash va ularning maxfiy ma'lumotlariga kirish uchun ijtimoiy tarmoqlar, forumlar yoki messenjerlardan foydalanishadi. Masalan, ular o'zlarini do'st yoki hamkasb qilib ko'rsatib, soxta profillar yaratishi, foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlar yoki hatto pul so'rashi mumkin.

Bundan tashqari, ilova qilingan fayllar yoki havolalar orqali ham fishing amalga oshiriladi, bu orqali tajovuzkorlar kompyuterga zararli dasturlarni o'rnatishi yoki maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlashi mumkin.

Yodingizda bo'lsin: fishingga olib kelishi mumkin bo'lgan 5 ta keng tarqalgan xatolar:

- antiviruslardan foydalanmaslik;
- elektron pochtaga kelgan noma'lum xabarlarni ochish;
- saytning manzil satrini tekshirmaslik;
- xavfsiz bo'lmagan sahifalar orqali to'lovlarni amalga oshirish;
- barcha to'lovlar uchun bitta bank kartasidan foydalanish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, fishing tarixi uning doimiy evolyutsiyasi va raqamli xavfsizlikning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishini ko'rsatyapti. Demak, ushbu tahdidga qarshi kurashish uchun xavfsizlik choralarini doimiy ravishda takomillashtirish, foydalanuvchilarni kiberxavfsizlik asoslariga o'rgatish, hujumlarni aniqlash va oldini olishning yangi usullarini ishlab chiqish zarur.

M.TURDALIYEVA,
I.ISMATOV. O'zA

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
22-may, 2024-yil
№19 (1251) chorshanba

> Men faoliyatimizdan norozi bo'layotgan fuqaroga: «Siz qaysi partiyaning dasturi bilan tanishsiz?» degan savol bilan murojaat qilgan bo'lardim. Aminmanki, u partiyalarning bir-biridan tubdan farq qiladigan g'oyasi, yo'nalishi, maqsadlari haqida hech qanday ma'lumotga ega emas. Deputatlarning vakolatlari, vazifalari nimalardan iboratligini bilmasligiga ham aminman.

AYOL VA AYOLLIK SIYOSATI

Partiya Markaziy kengashi «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan o'tkazilayotgan «Siyosatga marhamat!» loyihasining navbatdagi mehmonlari xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashi deputati, partiyaning Parkent tuman Kengashi raisi Gavhar Rizayeva hamda Olmaliq shahar Kengashi deputati, Olmaliq shahar Kengashi raisi Matluba O'lmasovalar bo'ldi. Ochiq muloqotda deputat ayollar siyosiy tajribalari bilan o'rtoqlashishdi, ishtirokchilarning savollariga javob qaytarishdi.

– Faraz qiling, qarshingizda saylovchilar o'tirishibdi. Siz deputatlikka nomzod sifatida ularga o'zingizni qanday tanishtirgan bo'lardingiz, ya'ni saylovchilarda iliq taassurot uyg'otish uchun qanday yo'l tutasiz?

Matluba O'lmasova:

– «Deputat bo'lish uchun qanday kasb egasi bo'lish kerak?» Saylovoldi uchrashuvlarimda saylovchilarga bergan ilk savolim shunday bo'lgan. Ulardan «Nomzod siyosiy partiyalarda yoki birorta davlat tashkilotida faoliyat yuritayotgan bo'lishi kerak», degan javob olganman. Shunda ularni hunarmandlik faoliyatim hamda saylovoldi dasturim bilan tanishtirganman.

O'shanda saylovchilarda iliq taassurot uyg'ota olgandirmanki, deputat bo'lib saylandim. Shu yo'l bilan onamning ham orzulari ushalgan. Boisi, onam menga hunar o'rgatdilar. Kelajakda kuchli ayol bo'lishing kerak. Ishonaman, sen buni uddalaysan, xalqqa yordaming tegadi. Lekin bir narsani unutmagin, kim bo'lishingdan, qat'i nazar, oilada o'z o'rningni bilgin, turmush o'rtog'ing hurmatini joyiga qo'ygin, deb nasihat qilganlar.

Gavhar Rizayeva:

– Saylov jarayonlarida fuqarolarga o'zimni tanishtirishimning hojati bo'lmagan. Sababi, nafaqat Parkent tumanida, balki O'zbekistonda taniqli bo'lgan inson – O'zbekiston qahramoni Tojiboy ota Rizayevning kelini ekanligimni hamma yaxshi bilardi. Shunday ibratli oila vakilasi bo'lganim uchunmi, saylovchilar menga ishonch bildirib, bir ovozdan deputat etib saylashgan. Avvaliga menda, deputat bo'lish uchun siyosiy bilimlarim yetarlimikin, saylovchilarim kutgandek, ular bilan davlat o'rtasida ko'prik bo'la olarmikanman, degan xavotir bor edi. Lekin senga umid ko'zi bilan boqib turgan insonlarning ishonchi odamga kuch bag'ishlar ekan. Qolaversa, «falonchining kelini» degan nomning soyasida qolib ketmasligim kerak, degan o'y menga tinchlik bermadi. Yumushlarim qanchalik ko'p bo'lmasin, siyosiy jarayonlarni kuzatib borishga harakat qildim, bilimlarimni boyitdim, xalq bilan xalqona tilda muloqot qildim.

> **Prezidentimiz, muhtojlarga subsidiyalar ajratilsin, deyaptilar, lekin quyida bu borada tanish-bilishchilik, korrupsiyaga duch kelyapmiz, subsidiyalar haqiqiy muhtojlarga yetib bormayapti. Subsidiyalar o'z haqiqiy egalariga yetib borsa, bu borada shaffof tizim yaratilsa, hech qanday e'tirozlar, portalga murojaatlar bo'lmasdi. Menimcha, bu masalada deputatlik nazoratini kuchaytirish kerak.**

– Bilishimcha, yaqinda siyosiy partiyalar ayol vakillarining yetakchilik salohiyatini oshirish maqsadida o'tkazilgan o'quv-amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etdingiz. Qolaversa, mana, besh yildirki, siyosatning ichidasiz. Nima deb o'ylaysiz, siyosatchi bo'lishga, umuman liderlikka intilayotgan xotin-qizlarda qanday bilimlarga ehtiyoj bor?

Matluba O'lmasova:

– Avvalambor, mazkur o'quvlarda notiqlik san'ati bilan yig'ilganlar e'tiborini jalb qilish, kamera qarshisida o'zini tutish, saylovchilar bilan uchrashuvlarda shovqin-suron bo'lib turgan vaziyatda ham o'zini yo'qotmaslik, fikrni jamlash, murojaatchilarni sabr bilan eshitish ko'nikmalarini egalladik. Menimcha, liderlikka intilayotgan xotin-qizlarimiz uchun ana shunday ko'nikmalarni egallash juda muhim.

Gavhar Rizayeva:

– Siyosatchi ayollarning yangi avlodini shakllantirishda nazariya va amaliyot uyg'unligi juda muhim. Partiyaning «Ustoz-shogird» loyihasi doirasida Yoshlar parlamenti a'zolarining parlamentdagi deputatlarga biriktirilishi bu boradagi eng samarali usullardan biri, deb hisoblayman. Bu amaliyot partiyaning quyi tizimida ham joriy qilinsa, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlariga siyosatga qiziquvchi yoshlar biriktirib qo'yilsa, ularga siyosiy bilimlarini amaliyotda mustahkamlab borishlari uchun zo'r imkoniyat yaratilgan bo'lardi.

– Tahlillarga ko'ra, aksariyat yurtdoshlarimiz siyosat faqat erkaklarning ishi, degan noo'rin qarashni ilgari surishar ekan...

Matluba O'lmasova:

– Albatta, vakolatimiz doirasida biz ham ko'plab murojaatlarni ijobiy hal etishga harakat qilyapmiz. 2023-yil mobaynida 325 nafar ishsiz yoshlarni 50 dan ziyod hunarmandlarga biriktirib qo'ydim. Ayni paytda ularning 30 nafari mustaqil faoliyat boshlab, hatto shogirdlar yetishtirishyapti.

Menga ko'pincha «Jamoatchilik asosida faoliyat yuritar ekansiz, shunchalik jon kuydirishingiz shartmi?!» deyishadi. «Shart!» deyman. Saylovchilar ishonchi qanchalar yuksak mas'uliyat ekanligini, fuqarolardan minnatdorlik dil so'zlarini eshitish, ularning duolarini olish qanchalar yoqimli ekanligini ular bilishganda edi.

Gavhar Rizayeva:

– Deputatlik faoliyatimning dastlabki yillarida hududdagi asosiy muammo infratuzlma bilan bog'liq edi. Hozir esa xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi, tibbiy ko'riklar, salomatligi, nogironlikni belgilash bilan bog'liq masalalar kun tartibiga chiqdi. Fuqaro murojaatlarining aksariyati esa bandlik masalasi bilan bog'liq. Ishsiz ayollarni ishlab chiqarish korxonalariga, tikuv sexlariga ishga joylashtirishga harakat qilyapmiz. 80 nafar xotin-qizlarni ishlab chiqarish korxonalariga, tikuv sexlariga ishga joylashtirdik, 20 nafarini mavsumiy ishlarga jalb qildik. Bandligi ta'minlanib, og'ir ro'zg'or yukining bir uchuni yelkasiga olayotgan ayollarning turmush o'rtoqlari bizdan minnatdor bo'lib, dil so'zlarini aytishganida, qaynonalari duo qilishganida faoliyatimiz mashaqqatlari ham unut bo'lib ketadi.

– Bu gaplarni eshitib, ayol deputat ijtimoiy masalalar qirolichasi, degan gap bejiz aytilmaganiga yana bir bor amin bo'lyapman. Lekin deputatlikning o'ziga xos mashaqqatlari ham bor.

Matluba O'lmasova:

– Besh yil mobaynida shu narsaga amin bo'ldimki, barchani birdek rozi qilish mumkin emas ekan. Kimningdir muammosini hal qilish jarayonida xohlaymizmi, yo'qmi, qaysidir tashkilotning mutasaddilari bilan ziddiyatlarga borishga to'g'ri keladi. Prezidentimiz muhtojlarga subsidiyalar ajratilsin, deyaptilar, lekin quyida bu borada tanish-bilishchilik, korrupsiyaga duch kelyapmiz, subsidiyalar haqiqiy muhtojlarga yetib bormayapti. Subsidiyalar o'z haqiqiy egalariga yetib borsa, bu borada shaffof tizim yaratilsa, hech qanday e'tirozlar, portalga murojaatlar bo'lmasdi. Menimcha, bu masalada deputatlik nazoratini kuchaytirish kerak.

Gavhar Rizayeva:

– Tan olish kerak, deputat bo'lish, xalqning dardi bilan yashash oson emas. Mahallang tinch, sen tinch, degan fikrning nechog'li o'rinli ekanligiga yana bir bor amin bo'lib kelyapman. Agar sizni qo'llab-quvvatlaydiganlar, imkoniyatlaringiz yetarli bo'lmasa, bu sohada faoliyat yuritish oson bo'lmaydi. Lekin yana bir narsaga amin bo'ldimki, mas'uliyat har qanday masalaning yechimi ekan. Men ham xalqimizning ishonchi zimmamga yuklagan katta mas'uliyatni his qilgan holda faoliyat olib boryapman. Yoshi ulug' saylovchilarim, otangga rahmat, ayrim erkaklar bajara olmaydigan ishlarni qilyapsan, deya duo qilib turishganda qanday qilib deputatlikni tashlab ketishim mumkin?!

– Saylov jarayonlarida to'siqlarga ham uchraganmisiz?

Matluba O'lmasova:

– To'siqlar desam, qanchalik to'g'ri bo'ladi bilmadimu, lekin bu jarayonda o'zim duch kelgan ayrim holatlar, saylovlar jarayonida qonundan og'ish holatlari, hokimiyat vakillari, mahalla raislari tomonidan noholisliklar, noqonuniy ishlar bo'lishiga amin bo'ldim. Saylovchilar tomonidan «Falon partiyadan ko'rsatilgan nomzod bizga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatyapti. Sizga ovoz bersak, bizga nimalar qilib bera olasiz?» qabilida murojaatlar ham bo'ldi. Ularga javoban: «Men sizlarga moddiy jihatdan nimalarnidir va'da qila olmayman, siz bilan davlat o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishim mumkin», dedim. Yana bir holat shu bo'ldiki, ishonchli vakilim saylovga mas'ul bo'lgan bir shaxsning bizga raqib nomzodni qo'llashga qaratilgan harakatlariga guvoh bo'lgan va bu holatni hatto video tasvirga tushirgan. Video tasvirlar saylov komissiyasiga taqdim etilgach, haqiqat tantana qildi va men deputat etib saylandim.

Gavhar Rizayeva:

– Siyosiy faoliyatimni boshlang'ich partiya tashkilotidan boshlaganman. Menga deputatlikka nomzodimni qo'yish taklifini bildirishganida, to'g'risi biroz ikkilangandim. Sababi, siyosiy faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan insonlargina deputat bo'la oladi, degan fikrda edim. «Siz taniqli tadbirkorsiz, qolaversa, obro'li, elning nazariga tushgan oila vakilasisiz, shunday ekan, tanlovda g'olib bo'lish imkoniyatingiz kengroq», deya nomzodimni ham viloyat, ham tuman Kengashi deputatligiga qo'yishdi. Lekin mening g'oliblikdan umidim kamroq edi. Boisi, boshqa partiyadan qo'yilgan nomzodlar orasida erkak nomzodlar, maktab direktorlari bor edi. Saylovchilar ayol nomzoddan ko'ra, erkak nomzodlarga ko'proq ovoz berishadi, deb o'ylagandim. Lekin kutilmaganda viloyat Kengashi deputati etib saylandim. O'z tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkin, ayni paytda ayol nomzodlar oldida hech qanday to'siqlar yo'q. O'zimizda xohish, ishtiyoq bo'lsa bas!

– O'zbekiston aholisi 37 milliondan oshdi. Bu yaxshi albatta. Lekin aholi soni ortishi barobarida ularning bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq muammolar ko'proq yuzaga chiqyapti. Bu masalalarni hal etishda siz kabi deputatlarimizning o'rni qanday bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

Matluba O'lmasova:

– Ochig'ini aytish kerak, ayrim fuqarolarimizning bo'yni ishga yor bermayapti. «Mana, hunarli, ishli bo'ldingiz, endi o'zingiz mustaqil faoliyat yuritishingiz mumkin», desak, ular: «Yo'q, men bu ishni uddalay olmayman, kam ta'minlangan oilamiz, bizni davlat boqishi kerak», deb turib olishyapti. Yoki ularga biror ish taklif qilinsa: «Maoshi kam ekan, meni falon tashkilotga ishga joylab qo'yinglar», qabilidagi talablarni qo'yishyapti. Fikrimcha, aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik, kambag'allikni qisqartirish uchun eng avvalo, boqimandalik kayfiyatini o'zgartirishimiz, mehnat qilishga o'rgatishimiz kerak.

Gavhar Rizayeva:

– Bugun ishsizlik respublika miqyosidagi eng katta muammolardan biri. Biz bu borada «mahalla yettiligi» bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz, ishsizlik darajasini mahallalar kesimida tahlil qilib, ish o'rinlari yaratishga harakat qilyapmiz. Yosh oilalar o'rtasida motivatsion mashg'ulotlar o'tkazilishiga alohida ahamiyat qaratyapmiz. Aslida juda mehnatkash xalqmiz, ayniqsa, sabr-toqatli, metin irodali ayollarimiz har qanday ishning uddasidan chiqishadi. Buning uchun ularga imkon berilsa, bas!

– Tasavvur qiling, yoningizga bir odam kelib, partiyalar o'zi nimaga kerak, deputatlar ishlamaydi, degan fikrni bildirsa, qanday javob qaytargan bo'lardingiz?

Matluba O'lmasova:

– Aksariyat hollarda partiyalarga yoki deputatlarga murojaat qilganu, muammosi ijobiy yechim topmagan fuqarolarda shunday kayfiyat kuzatiladi. Men eng avvalo, undan noroziligi sababini, muammosini so'rab-surishtirardim. Va, vakolatim doirasida unga yordam berardim. Shu tariqa fuqaroning partiya va deputatlar haqidagi fikrini ijobiy tomonga o'zgartirardim.

Gavhar Rizayeva:

– Men faoliyatimizdan norozi bo'layotgan fuqaroga: «Siz qaysi partiyaning dasturi bilan tanishsiz?» degan savol bilan murojaat qilgan bo'lardim. Aminmanki, u partiyalarning bir-biridan tubdan farq qiladigan g'oyasi, yo'nalishi, maqsadlari haqida hech qanday ma'lumotga ega emas. Deputatlarning vakolatlari, vazifalari nimalardan iboratligini bilmasligiga ham aminman. Siyosiy bilimi yetarli bo'lgan insonda bunday savol bo'lmaydi.

Suhbatni Feruza JALILOVA tayyorladi.

✓ E'tirof

Ashxobodda Alisher Navoiy haykali o'rnatildi

Alisher Navoiy nomi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Davlat akademik katta teatri, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyot muzeyi, yetakchi sanoat markazi – Navoiy shahri, metro stansiyasiga berilgan.

Shoir xotirasi, ma'naviy merosining ahamiyati nafaqat O'zbekistonda, balki yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida ham e'zozlanadi va e'tirof etiladi. Alisher Navoiyning turli yillarda barpo etilgan haykallari buning isbotidir.

Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i majmuasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etgan tadbir doirasida buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy haykalining tantanali ochilishi ham tashkil etildi.

Yodgorlikning ochilish marosimida mehmonlar ulug' shoirning o'zbek xalqi ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan va keyingi davrlar lirikasiga ulkan ta'sir ko'rsatgan betakror ijodiy merosini alohida ta'kidladi.

Ijodiy jamoalar tomonidan Alisher Navoiy asarlari o'zbek va turkman tillarida ijro etildi. Turkmaniston hukumati a'zolari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari yodgorliklar poyiga gul qo'ydi.

Qayd etish joiz, bog'ning markaziy qismi – Maxtumquli Firog'iy yodgorligidir. Yodgorlik jahonga mashhur 24 nafar yozuvchilarning haykalini birlashtirgan yangi madaniyat va istirohat bog'i majmuasining markaziy qismiga aylandi.

Maxtumquli yodgorligi atrofida jahon adiblari va atoqli shaxslarining haykallari o'rnatildi. Jumladan, majmuada Onore de Balzak, Iogan Volfgang Gyote, Rabindranat Tagor, Uilyam Shekspir, Fyodor Dostoyevskiy, Dante Aligeri, Sayat-Nova va boshqa ko'plab dunyo adabiyotining yorqin vakillari mahobatli haykallari qad ko'targan. Bobomiz Navoiyning haykali ham endi atoqli shaxslar qatoridan joy oldi.

B.XUDOYBERDIEV, O'zA

> Jahonning biror bir mintaqasida Qadimgi Yunon falsafasidan keyin u bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllangan «Ilmi Hikmat»ga teng keladigan o'ziga xos va yaxlit falsafiy ta'limotlar majmui yo'q.

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
22-may, 2024-yil
№19 (1251) chorshanba

ILMI HIKMATNI QADRLASH YO'LIDA

YOKI FALSAFADAN QAY DARAJADA XABARDORMIZ?

SUQROT SANAMLARGA SIG'INISHDAN BOSH TORTGANIDA NEGA O'N IKKI QOZINING O'N BIR NAFARI UNING O'LIMI UCHUN FATVO BERDI?

Har bir fan sohasiga oid atamalar, tushuncha va kategoriyalarning shakllanish tarixi va o'ziga xos ma'no-mazmuni borligi butun jahon olimlari tomonidan to'la-to'kis e'tirof etilgan ilmiy haqiqatdir. Shu ma'noda «Filosofiya» va «Filosof», «Falsafa» va «Faylasuf» atamalari qanday paydo bo'lgan va ularning ma'no-mazmuni haqida nimalar ma'lum» degan savol ham ko'pchilikni qiziqtiradi, albatta.

«Filosofiya» qadimgi yunon tilidagi «filo» - sevaman, «sofiya»- donolik, donishmandlik so'zlaridan olingan bo'lib, lug'aviy ma'noda «donishmandlikni sevish» degan mazmunni anglatadigan ilmiy atama, ijtimoiy fanlardan birining nomidir. Ushbu atama va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi VII—III asrlarda yuz bergan ulkan ma'naviy-ma'rifiy yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan. O'sha davrda shakllanib kelayotgan nazariy fikr ifodasi bo'lmish falsafiy dunyoqarash olamni va odamni, dunyo voqealari va inson hayotini yaxlit va bir butun holda tushunish hamda tushuntirish mujassamiga ziyolilar qatlamining tafakkur tarziga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «filosofiya» atamasini dastlab matematika fani orqali ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa u atoqli yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. U avvalo, qadimgi Yunonistonda «fanlarning otasi», ya'ni asosiy fanga aylangan. Asrlar davomida «filosofiya» so'zining ma'no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo'lgan, yillar davomida ushbu atamaning mohiyat-mazmuni ham yangilanib borgan.

Dastlab, filosofiya milodning birinchi ming yilligi boshlari, ya'ni VIII-VII asrlardan boshlab, bir necha asr davomida 158 ta shahar davlatdan iborat bo'lgan Afina ittifoqi grajdanlarining o'ziga xos mashg'uloti, muloqot va muomala vositasi bo'lib keldi. «Qullarning mehnati, grajdanlarning baxt-saodati» degan tamoyil amal qilgan o'sha zamonlarda grajdanlar qora mehnat bilan shug'ullanmasdilar va buning uchun ular 18 yoshga yetganlarida imtihon topshirib, grajdanlikka o'tishlari bilanoq ularga 2 ta qul biriktirilardi. Keyinchalik biror amalga o'tirsalar, qullar soni ortib borardi. Amal esa hamma grajdanlarga yetmas va ittifoqdagi amallar bilan band bo'lmagan ko'p sonli grajdanlar o'z vaqtini qandaydir mashg'ulot bilan o'tkazishlari kerak edi. Ularni bekor qoldirmaslik uchun «Demokratiya maydonlari», «Muloqot bog'lari», turli hajmdagi teatr va stadionlar, ochiq sud maydonlari tashkil qilingan. Grajdanlarning o'ntadan to'qqiztasi biror-bir doimiy ish bilan band bo'lmagan o'sha zamonda ularning aksariyati o'z kunini ana shu joylarda o'tkazar, turli mavzularda suhbatlar, muhokamalar, tomosha va o'yinlarda qatnashardi. Tarixchi Gesiodning suhbatlar va muloqotlar filosofiyani, muhokamalar huquq va sudni, bahs-munozaralar dialektikani, o'yinlar teatrni, musobaqalar esa stadionlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi, deya ta'kidlagani bejiz emas.

O'sha paytlarda o'zlarini qullardan ko'ra baland va xudolarga yaqin tabaqa, deb hisoblaydigan grajdanlar o'zaro suhbat va muloqotlarida qo'llash uchun qullar tushunmaydigan va o'zlarining yaqqol ustunligini ko'rsatib turadigan turli atamalar, tushuncha va kategoriyalarni ham o'ylab topa boshladilar. Masalan, ular osmon haqida gaplashsalar, suhbatlarda oddiygina «osmon» so'zi o'rniga «kosmos» so'zini o'ylab topdilar va asta-sekin «Kosmologiya» fani shakllandi. Sonlar va miqdorlar haqida fikr yuritsalar, «Matematika», tabiat haqida muloqot qilsalar «Fizika», axloq to'g'risida gapirsalar, «Etika» atamasini qo'llardilar. Shu tariqa muayyan bilim sohalari shakllana bordi. «Kosmologiya», «Astronomiya», «Astrologiya», «Ontologiya», «Gnoseologiya», «Sofistika», «Eklektika»,»Dialektika», «Logika», «Ritorika», «Estetika» kabi atamalar ham aslida ana shu jarayonlarning maxsulidir.

Odatda «filosofiya» tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, yuqorida uni antik – qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o'tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T. Gobbs (1588 – 1679) uni «tug'ri fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Gegel «umuman predmetlarga fikriy yondashish», Lyudvig Feyerbax «bor narsani bilish», pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa «foydali narsalarni bilish jarayoni» deya talqin etganlar.

Ushbu sohaga bo'lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan holda, unga yaxlit, umumlashgan ta'riflar ham berilgan. Filosofiyaga ijtimoiy ong shakli bo'lgan madaniyat, san'at, qadriyat nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning milliyligini aks ettirish imkoniyati tug'iladi. Ammo ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya kabi fan sohalari nuqtayi nazaridan qaralsa, ushbu ta'rifda umuminsoniylik va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekani yaqqol namoyon bo'ladi.

Qayd etish joizki, filosofiya insoniyat tarixidagi eng qadimgi ilm sohasi, antik davrda shakllangan dastlabki fanlardan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U shuningdek, olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida baxs yuritadigan fandir.

Insoniyat azal-azaldan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlab keladi. Umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelib-ketaverishida qanday ma'no bor, degan savollar barchani o'ylantiradi. Falsafa insoniyat uchun abadiy ahamiyatga molik ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. Shu ma'noda, olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, shular falsafaning azaliy va barcha zamon faylasuflari shug'ullanadigan asosiy mavzulari hisoblanadi.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan bog'liqligidan qat'i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to'g'risidagi ilmlar majmui hisoblanar edi. Bu esa dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o'rni haqidagi qarashlar tizimi bo'lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelganini anglatadi. U bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllaridan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki insoniyat tarixining ilk davrlarida behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lishi falsafiy bilimlarni egallash orqali ro'y bergan. Shu ma'noda, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo'lgan hurfikrlilikdan iborat bilimlar majmui hamdir. Aynan ana shunday dunyoqarashning shakllanishi insoniyat tarixining ajralmas hamrohi bo'lgan falsafiy tafakkurning dunyoga kelishi va takomillashib borishi uchun mustahkam ma'naviy asos bo'lgan.

Filosofiyaning barcha fanlardan oziqlanadigan umuminsoniy va universal fan ekanligi ma'lum. Uning hayotiyligi dunyo xalqlari tarixi va tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'lik mos ekani, ularning manfaatlari va intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq, albatta. Shu bilan birga har bir xalqning tarixi, tili, qadriyatlari bo'lgani kabi, o'ziga xos filosofiyasi va ma'naviyati ham borligi ayni haqiqatdir.

Bu esa jahon filosofiyasining umuminsoniyligi va milliyligi, muayyan xalq yoki mintaqaga xos tafakkur tarzining mohiyati va ahamiyatiga nisbatan eski aqidalardan voz kechib, yangi nuqtayi nazardan qarashni taqozo etadi. Falsafani zamonaviy mazmun bilan boyitib, bugungi talablar asosida rivojlantirishni zaruratga aylantiradi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. U arablarda «falosifa» sifatida qo'llanilgan va keyinroq bizga «falsafa» shaklida o'tgan. Mintaqamiz xalqlarining ijtimoiy tafakkurida filosofiya «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot, insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ham ishlatilgan. Masalan, «Ikkinchi Arastu», «Ikkinchi muallim» deya e'tirof etilgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy «filosofiya» so'zini «Hikmatni qadrlash», deya talqin qilgan. O'sha zamonda hikmatni qadrlash olam va odam hamda umrning qadriga yetish, degan ma'noda tushunilgan.

Buyuk alloma bobomiz Beruniyning «Hindiston» nomli asarida ham bu haqda aniq-tiniq ma'lumot berilgan va «filosofiya»ning qay tariqa «falosifa»ga aylangani ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Beruniy hatto «So'fiy» atamasi arabcha «Suffa» so'zidan emas, balki yunoncha «Sofiya» so'zidan ildiz olgan, deb hisoblagan va bu fikrni isbotlash uchun dalillar keltirgan. Mana uning so'zlari: «... yunonlarning faylasuflari avvalqi uchun emas, balki yuqori tabaqalari uchun usul va qoidalar ishlab chiqqan. Chunki yuqori tabaqalar xavf-xatardan tinchisa, tekshirish va fikr yuritish ishi bilan, avom xalqi esa beandishalik va o'jarlik bilan mashg'ul bo'lardilar. O'sha faylasuflarning biri Suqrot edi. Suqrot o'z xalqi ommasining sanamlarga ibodat qilishiga qarshilik ko'rsatib, tilda bo'lsa ham, sayyoralarni xudo deb atashdan bosh tortdi. Shuning uchun Afinaning o'n ikki qozisidan o'n bittasi bir ovozdan uning o'ldirilishiga fatvo berdilar. Suqrot esa haq yo'ldan qaytmaganicha o'lib ketdi.

...Qadimgi yunonlar tafakkuri ularda hikmat ilmi yoyilishi va falsafa ilmi tarqalishidan ilgari xuddi hindlarnikidek edi. Ularga hikmat ilmini hikmat ustunlari deb atalgan yetti «donishmand» yoygan: 1. Afinalik Solon, 2. Priyenlik Bias, 3. Korinflik Periander, 4. Miletlik Fales, 5. Lakodemenlik Xilon, 6. Lesboslik Pittakus, 7. Lindoslik Kleobulus.

Falsafani esa ulardan keyin yetishgan kishilar tozalab tarqatganlar. Qadimgi yunonlarda hamma narsalarni birgina narsa deb tushunuvchilar bor edi. Keyin ba'zilari u narsaning maxfiy va ba'zilari esa ma'lum bir quvvat ekanini aytdilar. Masalan, inson martabada birinchi sababchiga yaqinlashmasa, tosh va jonsiz dunyodan ortiqchaligi bo'lmay, xuddi tosh singari bo'lib qolar edi, dedilar. Ba'zilarining fikricha: faqat haqiqiy borliqqina birinchi sababchidir. Chunki u borliqning hech narsaga zotan ehtiyoji yo'q, boshqalar birinchi sababchiga muhtojlar. Vujudda boshqaga muhtoj bo'ladigan narsaning vujudi xayolga o'xshash bo'lib, haqiqiy vujud bo'lolmaydi: haqiqiy vujud faqatgina o'sha avvalgi yagonaning o'zi dedilar. So'fiyalar, ya'ni hakimlarning tushunchalari ana shunday edi. Chunki arab harfida «sin» bilan yozilgan yunoncha «suf» so'zi bizningcha, hikmat demakdir. Shuning uchun faylasufga, pilosupo, ya'ni «hikmatni suyuvchi» deb ism berilgan.

Musulmonlarning bir guruhi so'fiyalarning o'sha tushunchalariga yaqin fikrga borganidan ular ham so'fiya deb ataldilar. Ba'zilari esa so'fiya so'zining atama ekanini bilmasdan tavakkal qilib, so'fiya so'zini arabcha «sod» harfi bilan - suffa so'ziga nisbat berib,

> BUYUK ALLOMA BOBOMIZ BERUNIYNING «HINDISTON» NOMLI ASARIDA HAM BU HAQDA ANIQ-TINIQ MA'LUMOT BERILGAN VA «FILOSOFIYA»NING QAY TARIQA «FALOSIFA»GA AYLANGANI ILMIY DALILLAR BILAN ISBOTLANGAN. BERUNIY HATTO «SO'FIY» ATAMASI ARABCHA «SUFFA» SO'ZIDAN EMAS, BALKI YUNONCHA «SOFIYA» SO'ZIDAN ILDIZ OLGAN, DEB HISOBLAGAN VA BU FIKRNI ISBOTLASH UCHUN DALILLAR KELTIRGAN.

«so'ffiyalarni payg'ambar – unga tangrining rahmat va salomi bo'lsin – davridagi suffa suhbatdoshlari – as'hobi suffadan iborat kishilardir», deb atadilar. Undan keyin bu so'zni suf «jun» so'zidan qisqartirilgan, deb tushunishdi... Shunday qilib, o'sha «sofiya» lafzi xato yozilib, «so'fiy» lafziga aylanib ketdi, nihoyat bu so'z bizga ma'lum bo'lgan so'fiylarga laqab bo'lgan».

Nima bo'lganda ham, islom yurtimizga tarqalib, uning ahkomlari bilan birga arablar lisoni kirib kelganidan so'ng o'zbek falsafasi tarixida yangi bir davr boshlandi. Nafaqat islom ahkomlari ta'siri, balki xalifalikda keng yoyilgan qadimgi yunon-rim falsafasi sohasi hamda filosofiyaning mohiyati va ahamiyatini xalqqa tushuntirish ishlariga katta ahamiyat berildi va o'ziga xos sharhlovchilik maktabi shakllandi. Shu asosda musulmon olimlari, faylasuflari tomonidan shu asosda ko'plab mumtoz ta'limot va original nazariyalar yaratildi, ya'ni falsafaning yangi va o'ziga xos rivojlanish bosqichi ro'y berdi. G'azzoliy davrigacha davom etgan bu jarayon «Filosofiya»ni «falosifa» va «falsafa»ga aylantirdi hamda ushbu sohaning nuktadon allomalarini voyaga yetkazdi, ko'plab mashhur asarlar dunyoga kelishiga ham sabab bo'ldi.

Mazkur jarayonlarning peshqadam vakillaridan biri bo'lgan Abu Nasr Farobiy ushbu sohadagi eng yetuk alloma, tengi yo'q olim, islom falsafasining asoschisi sifatida e'tirof etiladi va bu bejiz emas. Uning tafakkuri mahsuli bo'lgan va keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan rivojlantirilgan «Hikmat ilmi» ana shu jarayonning eng asosiy kashfiyoti, islom tarqalgan hududlarda falsafa rivojini ta'minlagan tamal toshi, bugungacha ham johon faylasuflari tomonidan e'tirof etiladigan tarxiy-falsafiy fenomendir. Jahonning biror bir mintaqasida Qadimgi Yunon falsafasidan keyin u bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllangan «Ilmi Hikmat»ga teng keladigan o'ziga xos va yaxlit falsafiy ta'limotlar majmui yo'q. Nihoyatda o'ziga xos tushunchalar va kategoriyalar, tamoyillar tizimiga ega bo'lgan, keng hududda tarqalgan va qator oqimlar, o'nlab yo'nalishlarni qamrab olgan, asrlar davomida sayqallanib va zamonalar osha takomillashib kelgan ushbu falsafiy fenomen bugungacha ham ko'plab sharq mamlatlari falsafasida o'z o'rni va ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Farobiydan boshlangan ushbu serqirra falsafaning keyingi rivojida Al Kindiydan Al Beruniygacha, Ibn Sinodan al Arabiygacha, Nasafiydan Ibn Rushdgacha, Umar Xayyomdan Ulug'bekkacha va ulardan keyingi ko'plab Sharq allomalari, jumladan yurtimizda uning eng so'nggi vakillari bo'lgan jadidlar falsafasiga oid qarashlar va ta'limotlarda ham ilmi hikmatning izlari va ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu masalaga oid ta'limot va qarashlar takomilini o'rganish zaminimizda shakllangan falsafiy tafakkur «Avesto» zamonlaridan bugungi kungacha murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tganidan dalolat beradi. Qariyb uch ming yilni qamrab olgan bu tarixda nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat hayotida nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan falsafiy g'oya va ta'limotlar yaratildi. Al Xorazmiy va Al Buxoriy, Al Forobiy va Al Beruniy, Ibn Sino va Al Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi nomlari abadiyatga daxldor ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qildilar, turli-tuman falsafiy yo'nalishlar va oqimlar, nazariya va ta'limotlar vujudga keldi.

Garchand bu tarix bir-biridan farqlanadigan turli-tuman davrlardan iborat bo'lsada, asl mazmun-mohiyatiga ko'ra, yaxlit va bir butun, ona zaminimizda yashagan barcha avlod va ajdodlardan qolgan umumiy qadriyatdir. Shu ma'noda, bu boradagi tahlil biror bir geotsentrizm va osiyotsentrizm, milliy mahdudlik yoki etnik mumtozlik da'vosi tarzida emas, balki uni bobolarimiz yaratgan bebaho meros, insoniyat tafakkurining tarkibiy qismi sifatida xolisona o'rganish va undan saboq olishdan iborat bo'lishi davr talabidir.

Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u insoniyatning tafakkur bobida ilgari erishgan yutuqlarini tanqidiy bahslashni ham taqozo etadi. Biroq bu — ularni tamoman rad etish, kur-kurona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanishdi. Zotan ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biri sanaladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozishki, ushbu fanning oldiga quyilgan vazifalar va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning ba'zilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllangan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala ham barcha davrlarda dolzarb bo'lgan. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g'oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Falsafa, sirasini aytganda, ijtimoiy tafakkur va insoniyat ma'naviy taraqqiyoti mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o'zlashtirish, farovon hayot kechirish va o'z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq hamdir. Falsafiy ta'limotlar hamma davrlarda ham insoniyatning ilg'or tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan va insoniyat madaniyatini yanada yuksakroq bosqichga kutarishga xizmat qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, har bir falsafiy g'oya, mafkura, bilimlar tizimi asosan o'z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini xal etishda qul kelgan. Shuning uchun Aflotun, Forobiy, Beruniy, Navoiy va Gegelning asar hamda ta'limotlarida ular yashab o'tgan davr g'oyalari aks etgan.

(Davomi bor)

Qiyomiddin NAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

✔ Kun hikmati

«САДОИ ТУРКИСТОН»

НЕГА ТАТАР ЗИЁЛИЛАРИНИНГ ЭЪТИБОРИНИ ТОРТГАН ЭДИ?

«Татар вақтли матбуотида Туркистон» номли китоб XX аср бошларида татар вақтли матбуотида Туркистон ҳақида чоп этилган мақолалар тўплами экан.

Татар зиёлилари муаллифларининг сафар очерклари шубҳасиз, киши эътиборини тортади. Мана шундай очерклардан бири «Кўрган-кечирганларим» деб номланиб, 1914 йилда Иброҳим Тоҳирий муаллифлигида «Шўро» журналида чоп этилган.

Маълумот ўрнида айтиш жоизки, «Шўро» ижтимоий-маърифий ва адабий-публицистик журнал бўлиб, 1908 йилнинг 10 январидан 1917 йилнинг 31 декабригача Оренбург шаҳрида татар тилида чоп этилган. Ойига икки марта нашр этилган ушбу журналнинг жами 240 та сони дунё юзини кўрган. «Шўро» журналининг ноширн М.Рамиев (кейинчалик З.Рамиев), муҳаррири эса Р.Фахретдинов бўлган. Ю.Акчура, З.Баширий, М.Бигиев, Я.Вали, Валидийлар таҳририят аъзолари ҳисобланишган. Татар олтин саноати эгалари бўлган Рамиевлар шарофати билан журнал юксак полиграфик сифатда мунтазам чоп этилган.

«Кўрган-кечирганларим» мақоласида муаллиф: «Туркистонга саёҳат этмоқ орзусида шу қиш Тошкент шаҳрига келиб, уч-тўрт ҳафта шу шаҳарда қолиб кетдим. Тошкент шаҳрига келиб, муҳтарам юрист Убайдулла Хўжаев *(Асадуллахўжаев – муаллиф изоҳи)* жаноблари томонидан Туркистон маҳаллий тилида ҳафтасига икки маротаба чоп этилаётган «Садои Туркистон» газетасини уч-тўрт кун топмадим» деб бошлайди. Журналда «Садои Туркистон» газетаси чиқа бошлагани ҳақидаги хабар босилганини филология фанлари номзоди Сайёра Ҳалимова ҳам ўз тадқиқотида келтириб ўтган эди. Бироқ олима келтирган маълумотда «Шўро» журналининг 1914 йил 5 май сони, деб қайд этилган. Биз юқорида тилга олган манбада эса журналнинг 1914 йил 23-сони, деб ёзилган. Ҳар ойда журнал 2 марта чоп этилганини ҳисобга олсак, май ойида нашрнинг 23-сони чиқиши мантиққа тўғри келмайди. Демак, «Шўро» журнали «Садои Туркистон» газетаси ҳақида яна алоҳида мақола чоп этган бўлиши мумкин.

Таъкидлаш жоизки, Убайдулла Асадуллахўжаев 1913 йилнинг 21 декабрида Сирдарё вилоятининг ҳарбий губернаторидан Тошкентда «Садои Туркистон» номли хусусий газета чиқариш учун 37882 рақамли рухсатнома олишга эришади. Филология фанлари номзоди Сайёра Ҳалимованинг ёзишича, 1914 йилнинг 4 апрель куни Тошкентдаги В.М.Ильин босмахонасида «Садои Туркистон» газетасининг биринчи сони босилиб чиқади. Иброҳим Тоҳирийнинг мақоласи «Шўро» журналида 1914 йилда чоп этилганига қараганда, у Тошкентда «Садои Туркистон»нинг илк сонларини ўқишга муваффақ бўлган. Қолаверса, муаллифнинг мақолада «Бу йилнинг апрелида чоп этила бошлаган «Садои Туркистон» газетасининг ўқишли бўлиши муҳтарам юрист, Убайдулла афанди Хўжаевга боғлиқ» деган сўзлари ҳам буни тасдиқлайди.

Мақола аввалида муаллиф бир муаммони ўртага ташлаб, «туркистонликлар яшил-қизил» рангли китобларини қўйиб, газета ўқишга одатланишса, «Садои Туркистон» муштарийлари 6-7 мингга етган бўларди, дейди. Иброҳим Тоҳирий Туркистоннинг ҳар бир жойидаги китоб сотувчилар ҳам турли ҳикоят, ривоятларини қўйиб, қувватнинг кўзгуси бўлган газета ўқишга одатланса, бўш ўтирганида ахборотларга эга бўлса, яхши бўларди, дея фикрини давом эттиради. Бундан шундай хулоса чиқадики, муаллиф туркистонликларнинг газетхонлик маданияти билан боғлиқ муаммосини ҳам ўз кўзи билан кўрган. Бу фикрлар газетхонлик ноёб ҳодисага айланиб бораётган бугунги кунимиз учун ҳам бонг урилгандек, туюлди менга.

Муаллиф ўз навбатида масаланинг иккинчи томонига ҳам эътибор каратади. Яъни, газетхонлик маданияти ошиши учун нашр сифатини ҳам ошириш кераклиги борасида фикрларини ёзади. Масалан, «Туркистон лаҳжасида чоп этилаётган газеталарга қараганда «Садои Туркистон»нинг бошқаруви, услуби, тили тараққий этган кўринса-да, ўзидан олдин чоп этилган иккита нашр йўлидан узоқ кета олмайди», дейди. Яъни, олдинроқ чоп этилган нашрлар билан бир хил бўлиб колди, деган фикрни айтади.

Хўш, нега у бундай хулосага келган? Бу саволга мақола давомида жавоб берар экан, Иброҳим Тоҳирий газета ўз ўқувчиларига «мискин қаландар, дарвешлар услубида сўфиёна фалсафадан ваъз сўзлайди», дейди. Газетадаги ҳикоялар, мақолаларда таъриф-ифодалар, илғор фикрлар берилишини мақтаб, шу йўсинда давом этса, ҳар жиҳатдан тараққий этишини билдиради.

> ТУРКИСТОННИНГ ҲАР БИР ЖОЙИДАГИ КИТОБ СОТУВЧИЛАР ҲАМ ТУРЛИ ҲИКОЯТ, РИВОЯТЛАРИНИ ҚЎЙИБ, ҚУВВАТНИНГ КЎЗГУСИ БЎЛГАН ГАЗЕТА ЎҚИШГА ОДАТЛАНСА, БЎШ ЎТИРГАНИДА АХБОРОТЛАРГА ЭГА БЎЛСА, ЯХШИ БЎЛАРДИ.

Муаллиф нашрнинг қандай давом этишини истаган? Буни қуйидаги фикрда яққол сезиш мумкин: «Бу газетага иштирок этадиган қаламкашлар орасида қалами-да, фикрлари-да гўзал, шахд билан ёзувчилар кўринадур. Номери хотирамда колмаган. «Садо»нинг *(«Садои Туркистон» назарда тутилянти – муаллиф изоҳи)* бир сонида муҳтарам Индамас афанди фельетон шаклида «Маданият тўлқинлари» сарлавҳали бир мақола ёзган». Иброҳим Тоҳирий айнан шу мақоладан таъсирланиб, Туркистон маданияти ривожидаги оғриқли муаммолар ҳақида фикр-мулоҳазаларини ёзади ва унинг ечимларини кўрсатиб беради.

Муаллифнинг фикрларидан шундай хулоса чиқариш мумкин: татар зиёлилари миллатни ғафлат ва жаҳолатдан уйғотишда Туркистон жадидларига катта умид ва ишонч билан қарашган. Туркистон жадидлари томонидан нашр этилаётган газета ва журналларни маънавий қўллаб-қувватлашган. Туркистонликларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги ўзгаришларга бефарқ бўлишмаган;

Аксинча, Туркистоннинг замон билан ҳамнафас тараққий этишига хайриҳоҳ бўлишган. Сайёра Ҳалимованинг ёзишича, Убайдуллахўжа Асадуллахўжаев «Садои Туркистон» газетасининг мақсад ва маслагини белгилашда Исмоилбек Ғаспирали томонидан 1883 йили Қримда чиқарилган ва Туркистонда ҳам кенг тарқалган машҳур «Таржумон» илгари сурган маърифатпарварлик ғояларидан илҳомланган. Шу сабабли ҳам жадид матбуоти, хусусан, «Садои Туркистон» газетаси татар зиёлиларининг диққат марказида бўлган ва бу Иброҳим Тоҳирий каби ижодкорларнинг мақолаларида акс этган, деб ўйлаймиз.

Алижон САФАРОВ,
ЎзЖОКУ кафедра мудири
филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

✔ Мулоҳаза

Монитор ортидаги Қора кучлар

Тадқиқотлар 2024 йилда 1,31 миллиард, яъни дунё аҳолисининг 16,35 фоизи видео ўйинларга муккасидан кетганини кўрсатмоқда. 2027 йилда бу кўрсаткичнинг 17,7 фоизга ёки 1,47 миллиардга етиши кутилмоқда. Маълумотларга қараганда, видео ўйинлар инсон ҳаётига жадал кириб келаётган иллатга айланяпти. Дунё бўйича жами ўйинчиларнинг 36 фоизини 18-34 ёшдагилар, 24 фоизини эса 18 ёшгача бўлганлар ташкил этяпти. Қайд этилишича, барча даврларнинг энг кўп сотилган видео ўйини Тетрис бўлиб, у 520 миллион нусхада сотилган. Ундан кейинги ўринни Минерафт (238 миллион), Гранд Тхефт Ауто (175 миллион), Wии Спортс (82,9 миллион) ва ПУБГ (75 миллион) эгаллаган.

Аччиқ ҳақиқат шундаки, бугунга келиб видео ўйинлар замонавий жамиятнинг ажралмас қисмига айланди. Айниқса, ота-оналарда боласининг хархашасига жавобан «телефонни ўйнаб тур» дейиши оқибатида бола соатлаб ўйин ўйнайди. Вахоланки, ёш болаларнинг экранга кунлик қараш меъёри 45 дақиқа этиб белгиланган.

Кливленд клиникаси доктори Майкл Манос видео ўйинлардан ажралмайдиганлар хусусида шундай фикр билдиради: «Ўзларини видео ўйинлардан уза олмайдиган болаларда депрессия ва безовталаниш кучаяди, жонсарак ва бошқалардан ҳадиксирайдиган бўлиб қолади. Агар ўйинлардан узоқлашсангиз, бу симптомлар ўз-ўзидан йўқолиб боради». Кўриниб турибдики, ота-оналар, ўқитувчилар ёки видео ўйинчиларнинг ўзлари ушбу камчиликларнинг ҳар қандай салбий таъсирларини юмшатиш учун тегишли чоралар кўришлари керак. Бундай ўйинларга чегаралар ўрнатиш, ёш чекловлари ва ота-она назоратини қўллаб-қувватлаш лозим.

Ўтган йили Америка тиббиёт уюшмаси видеоўйинларга берилиб кетишни расман аклий заифлик касалликлари қаторига киритиш таклифини илгари сурганди. Шифокорларнинг фикрича, бу «касаллик» кунига икки соатдан ортиқ ўйин ўйнайдиган ҳар қандай киши саломатлигига хавф солади.

Дарвоқе, бу Интернетдан кўнгилхушлик излайдиганларга ҳам тегишли албатта.

Бу қарангки, сайёрамиздаги жуда кўп минтақаларда, хусусан, Европа мамлакатларида Интернетга қуллик хасталигини даволайдиган махсус шифохоналар ташкил қилинган. Тадқиқотчи Ҳилмий Хидир Сорийнинг қайд этишича, «Интернет орқали боғланишнинг ижтимоий муносабатларга таъсири» мавзуида қарийб 500 нафар киши ўртасида ўтказган сўровлар интернетга мутелик оқибатида ижтимоий ва руҳий ёлғизлик муаммоси кўпаяётгани аниқланган. Саросима, тушкунлик, хавотир, фарзандларнинг Интернет билан машғуллиги сабабли ёш оилалардаги келишмовчиликлар, ёшларнинг оила аъзолари билан алоқалари бекарорлашуви ушбу муаммонинг асосий аломатлари сифатида кўрсатилмоқда. Афсуски, хозиргача мутахассислар ижтимоий тармоклардаги жангари ўйинлар инсонни зўравонлик ва вахшийликка ундайдиган экстремистик хатар омили эканидан огоҳлантиришаётган бўлса-да, видеоўйинлар билан боғлиқ аниқ бир қарор, қонун ёки ҳуқуқий кўрсатма қабул қилинмаган.

Шу ўринда яна бир маълумот: 2016 йилларда машҳур бўлган ACTION Game's таснифига кирувчи ўйинлар отишмаларга, портлаш ва турли ур-йиқитларга бой. Ундаги қахрамонлар бошқаларига қараганда кучли, ҳар томонлама «етук», оғзи шалоқ, ичкиликка мойил, безори персонажлардир. «Counter-Strike», «Bad Boys», «The Godfather», «Hitman» каби ўйинлар ҳам ана шу турга киради. Буларнинг ичида, айниқса, бир неча йиллардан буён катта қизиқиш билан ўйнаб келинаётган «GTA» деб номланган ўйинни «безорилик китоби» деса бўлади. Қамоқдан чиққан безорининг қабоҳатга тўла ҳаёти кўрсатиб берилган бу ўйинни, ҳатто 7-8 яшар бола ҳам қийналмасдан бемалол ўйнайди. Ўйиндаги беҳаё, безори «қаҳрамон»нинг жиноий ишларига кўмаклашади. Энг ёмони, бола реал ва виртуал ҳаёт ўртасидаги тафовутни унутади ва ўйин қаҳрамонларига тақлид қила бошлайди.

Таассуфки, видеоўйинлар таъсирида содир этилган жиноятлар статистикаси ҳам йилдан-йилга ўсиб бораётир.

Бундан 12 йиллар аввал Шон Вилли исмли 21 ёшли йигит ўзини ўзи пешонасидан отиб қўйди. Аниқланишича, у «EverQuest» номли компьютер ўйинига муккасидан кетиб, навбатдаги ўйинда ютқазиб қўяди ва йиққан баллари, мукофотларидан ажралганига чидаёлмай, ўз жонига қасд қилганди. 2004 йили Буюк Британияда 17 ёшли Уоррен Леблан 14 ёшли Стефан Пакирнинг жонига қасд қилди. Суд жараёнида айбланувчи «MapNipS» компьютер ўйини таъсирига тушиб қолганини айтган.

Жанубий Кореяда ҳарбий стратегия ўйинлар қулига айланган 28 ёшли йигит оламдан ўтган. Маълум бўлишича, у уч кеча-кундуз давомида ўйинхонадан чиқмаган. Фақат ҳожатхонага чиқиш ва гоҳида озгина мизғиб олиш учун ўйин столидан нари кетган, холос. Бунгача ўғли неча кундан буён бедарак кетганидан хавотирга тушган она ёрдам сўраб, боласининг собиқ ҳамкасбларига мурожаат қилади. Маълум бўлишича, ўғил ўйинларга берилиб кетиши оқибатида бир ой олдин ишдан ҳайдалган экан. Собиқ ҳамкасблар уни якин орадаги ўйинхонадан топишади. Дарҳол уйга етиб бориш кераклиги ҳақидаги илтимосларга: «Ўйиннинг шу босқичини охирига етказиб қўяй, албатта бораман», дейди.

Хулоса ўрнида бир таклиф билдирмоқчиман: Назаримда ёшлар ҳаётини издан чиқаришгача хизмат қилаётган ўйинларнинг алоҳида рўйхатини шакллантириш зарур ва белгиланган муддатдан ортиқча ўйнаганларга тақиқни йўлга қўйиш пайти келди. Ёхуд, ўйинлар маълум бир муддат ўтгач, ўз-ўзидан автоматик равишда ўчиб қоладиган бўлсин. Токи, ёш авлод ўйин баҳонасида турли бузғунчи ғояларни тарғиб қилиб, тажовузкор кайфиятни уйғотишни мақсад қилган «қора кучлар» тузоғига тушмасин...

Моҳира ҲАКИМОВА,
ЎзДЖТУ талабаси

Олий суд: МАИШИЙ ЗЎРАВОНЛИК ҚИЛГАН 4 343 НАФАР ШАХС МАЪМУРИЙ ЖАВОБГАРЛИККА ТОРТИЛДИ

Уларнинг 2 минг 344 нафарига жарима жазоси, 2 мингга яқинига эса маъмурий қамоқ жазоси қўлланилди.

Мамлакатимиз суд-ҳуқуқ тизимида инсон ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Айниқса, хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузини ошириш, ижтимоий-сиёсий фаоллигини мустаҳкамлаш борасидаги изчил саъй-ҳаракатлар алоҳида эътиборга лойиқ.

Бу борада Президентимиз томонидан 2023 йил 11 апрелда имзоланган «Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонун муҳим аҳамият касб этди.

Қонунга мувофиқ, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс 41-1-модда (шаҳвоний шилқимлик қилиш), 59-2-модда (оилавий (маиший) зўравонлик) ва Жиноят кодекси 126-1-модда (оилавий (маиший) зўравонлик), 141-3-модда (шахснинг шаънини ва қадр-қимматини камситувчи ҳамда инсон ҳаётининг сир тутиладиган томонларини акс эттирувчи маълумотларни ошкор қилиш) билан тўлдирилди.

Олий суд ахборот хизматидан маълум қилишларича, жорий йил биринчи чорагида Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 41-1-моддаси (шаҳвоний шилқимлик қилиш) билан 318 нафар шахс маъмурий жавобгарликка тортилиб, уларнинг 97 нафарига жарима жазоси, 221 нафарига эса маъмурий қамоқ жазоси қўлланилди.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 59-2-моддаси (оилавий (маиший) зўравонлик) билан 4 минг 343 нафар шахс маъмурий жавобгарликка тортилиб, уларнинг 2 минг 344 нафарига жарима жазоси, 2 мингга яқинига эса маъмурий қамоқ жазоси қўлланилди.

Жиноят кодексининг 126-1-моддаси (оилавий (маиший) зўравонлик) билан 134 нафар шахс судланиб, уларнинг 51 нафарига озодликдан маҳрум қилиш жазоси, 83 нафарига эса озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланди.

Жиноят кодексининг 141-3-моддаси (шахснинг шаънини ва қадр-қимматини камситувчи ҳамда инсон ҳаётининг сир тутиладиган томонларини акс эттирувчи маълумотларни ошкор қилиш) билан 40 нафар шахс судланиб, уларнинг 13 нафарига озодликдан маҳрум қилиш жазоси, 27 нафарига эса озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланди.

Н.АБДУРАИМОВА, ЎзА

АГАР...

СЕНИ БОШҚАРИШЛАРИГА ТАЙЁР ТУР

Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романи араб тилига ўгирилиб, Мисрнинг «Дор ул-Маориф» нашриётида 1000 нусхада чоп этилди. «Ўткан кунлар: Туркистондаги аччиқ севги қиссаси» номи остида омма юзини кўрган ушбу китоб муқовасида Абдулла Қодирий авлодлари тавсиясига кўра, романнинг 1925 йилдаги илк нашрининг суратидан фойдаланилган. Бу маълумотни ўқиб, энди мисрлик ёшлар ҳам «Ўткан кунлар»имизни мутолаа қилишади, дея ғурурландим. Қандай гўзал манзара: Қодирий бобомиздан қолган улкан адабий меросдан дунёнинг нариги бурчагидаги тенгдошим баҳраманд бўляпти...

Маълумотларга кўра, дунёда 129 864 880 та китоб бор.

Савол туғилади: мисрлик ноширлар нега фарзандлари айнан шу асарни ўқишини исташди? Бундан уларга нима наф?

Тан олиш керак, бугунги дунёда «Ўткан кунлар»дек маънавий қиммати баланд асарларга эҳтиёж юқори.

Қайд этилишича, «Ўткан кунлар» 1931 йили Холид Саид ва Абдулла Қамчинбек томонидан озарбайжончага, 1958 йил Лидия Бат ва Вера Смирнова томонидан «Минувшие дни» номи билан рус тилига, «Ytkən kənnər» номи остида 1959 йил Қозон шаҳрида Татаристон китоб нашриёти томонидан татарчага таржима қилинган. Шунингдек, 2019 йил америкалик тадқиқотчи ва таржимон Марк Эдвард Риз томонидан «Bygone Days» номи билан инглиз тилига ўгирилган. Энг қизиғи, китоб таржимасига 15 йил кетган ва асар америкаликларга тушунарли бўлиши учун 400 дан ортиқ изоҳ ва шарҳлар ёзилган. Китоблар ҳақида гап кетганида шубҳасиз, 1445 йили Германияда чоп этиш ускунаси ихтиро қилинганидан кейингина уларни миллионлаб нусхада чоп этиш имкони яратилганини айтиш жоиз.

Тарихнинг гувоҳлик беришича, бунгача хаттотларга талаб кучли бўлган, аммо улар жисмоний тарафдан улгуриши учун йиллар талаб этилган. Қайд этилишича, германиялик ихтирочи Гуттенберг хаттотлар ишини енгиллаштирганидан кейин китобларни кўпайтириш имкони яратилган. Афсуски, турли танқидлар сабаб барча давлатлар ҳам бу ихтиродан фойдаланмаган. Шулардан бири, Усмонли давлатида 1485 йилдан 1727 йилгача бу қурилмадан фойдаланиш тақиқланган. XVIII аср бошларида Истанбулнинг ўзида 80 минг нафар хаттот бўлгани айтилади. Султон Аҳмад III даврига келибгина юқоридаги тақиқ бекор қилинди.

Бир сўз билан айтганда, дунёни илм қуткаришини англаб етган мамлакатларда ноширлик ривожланган. Биринчи бўлиб 1460 йилда Франциянинг Стратсбург шаҳрида китоб босиш йўлга қўйилган. XV асрнинг 60 йилларида бу технология Италияда ҳам тарқалган. Даставвал, Рим ва Венецияда, кўп ўтмай Флоренция, Милан ва Туринда босмаханалар пайдо бўлган. 1476 йилда Уилям Кекстон Англиядаги биринчи китоб босиш қурилмасини Лондонга ўрнатган, икки йил ўтиб эса бу жараёнга Оксфорд ҳам қўшилган. Бу даврга келиб китоб босиш Голландия, Испания ва ҳатто Шаркий Европага ҳам кириб борган.

Шу ўринда Ўзбекистонда биринчи марта китоб чоп этишга 1871 йили киришилганини ҳам айтиш жоиз.

Тўғри, бугун китоб мутолааси борасида ёшларимизнинг қарашлари ғариблашган. Зеро, китоб савдоси билан боғлиқ айрим кўрсаткичлар 37 миллион халқи бор ва унинг қарийб 60 фоизи ёшлар бўлган давлат учун жуда-жуда камлиги ҳам бор гап.

Китоб ҳақидаги фикрлар якунида эса, доноларнинг бир гапини эслаш ўринлидир: «Агар китоб ўқишни одатга айлантирмасанг, сени бошқаришларига тайёр тур!»

Зарина АҲМЕДОВА,
«Миллий тикланиш» мухбири

✔ Кун ҳикмати

Агар ҳамма нарса сен истагандек бўлаётган бўлса, бахтлисан. Агар сен истагандек бўлмаётган бўлса, бахтлироқсан.

Баҳоуддин Нақшбанд

✔ Халқаро ҳаёт

АСР ЎҒРИЛАРИ – БОЖХОНАЧИЛАР

Ливияда умумий қиймати қарийб 2 миллиард долларга тенг бўлган 25,8 тонна олтинни мамлакатдан олиб чиқиб кетаётган бир гуруҳ юқори мартабали божхона ходимлари ҳибсга олингани хабар қилиняпти. Бош прокуратура вакилларининг фикрича, бу мамлакат умумий захирасининг чорак қисмини ташкил этади.

ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ САВДО АЙЛАНМАСИДАГИ ТОП-10 ДАВЛАТЛАР

Статистика агентлиги 2024 йилнинг январь-апрель ойларида Ўзбекистон Республикаси ташқи савдо айланмасида юқори улушга эга бўлган ҳамкор давлатларни эълон қилди:

1. Хитой – 3,9 млрд
2. Россия – 3,8 млрд
3. Қозоғистон – 1,2 млрд
4. Туркия – 920,2 млн
5. Корея – 695 млн
6. Франция – 386,4 млн
7. Германия – 345 млн
8. Афғонистон – 308,6 млн
9. Туркманистон – 288,5 млн
10. Ҳиндистон – 270,3 млн.

Маълумотларга қараганда, Бразилия президенти Лула да Силва 15 – 16 июн кунлари Швейцариянинг Бургенсток шаҳрида бўлиб ўтадиган Украина бўйича конференцияда қатнашмайди. Бундан аввалроқ, Жанубий Африка президентининг ҳам ушбу анжуманда иштирок этмаслиги эълон қилинган эди.

РОССИЯ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ХИТОЙДАН КЕЙИНГИ ТАШРИФИ ЎЗБЕКИСТОНГА

Кеча Ўзбекистон ва Россия давлат раҳбарларининг ўзаро телефон орқали мулоқотида долзарб масалалар қаторида Владимир Путиннинг давлат ташрифи билан Тошкентга келиши ҳам муҳокама қилинганлиги хабар қилиняпти. Бу ҳақда Россия президентининг матбуот хизмати ҳам хабар берди.

Мулоқот чоғида Владимир Путин яқинда Пекинда бўлиб ўтган музокаралар вақтида Хитой раҳбарияти билан бўлган таассуротлари ҳақида ҳам сўзлаб берди. Шунингдек, томонлар Россия ва Ўзбекистон ўртасидаги иттифоқчилик ва стратегик шериклик муносабатларини янада изчил мустаҳкамлаш истагини билдиришди, – дейилади Россия ОАВлари тарқатган хабарларда.

ВЕРТОЛЁТ ҚУЛАШИГА ТЕХНИК НОСОЗЛИК САБАБ БЎЛГАН

ИРНА давлат агентлигининг маълум қилишича, 19 май кунги фожиага вертолётнинг техник носозлиги сабаб бўлган ва ҳалок бўлганларнинг барчаси шаҳид деб эълон қилинган.

ИРИБ телеканали, ҳалок бўлганларнинг дафн маросимларини ташкил қилиш учун махсус қўмита тузилганини ҳам маълум қилди. Унинг раҳбари этиб мамлакат вице-президенти Муҳсин Мансурий тайинланган.

Президент Иброҳим Раисийнинг дафн маросими 23 май куни унинг туғилган шаҳри Машҳадда бўлиб ўтади.

Бундан ташқари, Эрон сайлов комиссияси матбуот котиби Муҳсин Исломийнинг айтишича, янги давлат раҳбари учун муддатидан олдинги сайлов 28 июнь санасига белгиланган.

ПРЕЗИДЕНТ ХОРИЖЛИК ТАЛАБАЛАРГА ҲУЖУМ ҚИЛГАНЛАР ЖАЗОЛАНИШИНИ ТАЪКИДЛАДИ

18 май куни Қирғизистон пойтахти Бишкек шаҳрида юз берган тартибсизликлар юзасидан билдирилаётган муносабатлар мамлакат раҳбариятининг энди бу масалаларга жиддий чоралар қўллашидан далолат беряпти. Хусусан, куни кеча Қирғизистон президенти ҳам хорижлик талабаларга ҳужум қилган қирғизистонлик ёшларни кескин қоралади. Жапаров уларни "Интернетдаги ёлғон провокацияларга учиб, мехмондўст қирғиз халкининг обрўйига путр етказишда" айблади.

– Биз ҳуқуқий давлат қурдик. Энди тартиб ўрнатамиз. Тартибсиз ҳеч бир давлат ривожлана олмайди. "Ўзини ўзи суд қилишни" – қабул қилиб бўлмайди. Жазо учун суд бор, – дея қўшимча қилди Қирғизистон етакчиси.

Қирғизистон ИИВ хабарига кўра, 18 май куни содир бўлган ва ўнлаб хорижлик талабалар жароҳатланган тартибсизликларда қирғизистонлик ёшлар айбдор бўлган. Оқибатда бир неча киши ҳибсга олинган.

НЕМИСЛАР ҚАРШИ ЭМАС. ҲОЗИРЧА...

Bloomberg нашрининг маълум қилишича, Германия ҳукумати Россиянинг музлатилган активларидан олинадиган даромаддан фойдаланиш бўйича АҚШ режасини қўллаб-қувватлашга тайёр.

Агар ушбу ташаббус амалга ошса, Украинага 50 миллиард доллар миқдорда маблағ ўтказилади.



РЕЗОЛЮЦИЯ ҚАБУЛ ҚИЛИНМАДИ

БМТ Хавфсизлик Кенгаши қонунда қуролланиш пойгасининг олдини олиш бўйича Россия резолюциясини қабул қилмади.

УКРАИНАЛИК ЁШЛАР ЯНА САФДА

Украина 2024 йили Парижда бўлиб ўтадиган Олимпия ўйинларида иштирок этишини расман тасдиқлади. Бу ҳақда мамлакат Ёшлар ва спорт вазирлиги хабар берди.

Интернет маълумотлари асосида Зарина АХМЕДОВА тайёрлади.

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mtgazeta.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№19 (1251)
22-may 2024-yil, chorshanba

САВОЛ БЕРИНГ!

– Яқинда нафақага чиқдим. Энди мулк солиғи тўлашдан озод этиламанми? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Озода Каримова, нафақахўр

– Ҳа. Солиқ кодексининг 421-моддасига мувофиқ, нафақахўрлар пенсия гувоҳномаси асосида ўз мулкида бўлган 60 кв.м дан ортиқ бўлмаган мулкка солиқ солинишдан озод қилинади.

Мафтуна Эргашева, ҳуқуқшунос

– Меҳнатга лаёқатсизлик кунлари учун тўланадиган тўловдан даромад солиғи ушлаб қолинадими?

Нодир Бегмаҳмадов, Самарқанд вилояти

– Солиқ кодексининг 377-моддасига асосан, ходимга касаллик таътиллари асосида вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик нафақалари учун тўловлар жисмоний шахсларнинг бошқа даромадлари турига киради. Бу даромадлар, ўз навбатида, умумий даромадга киритилади ва белгиланган тартибда 12 фоизлик жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ушлаб қолинади.

– Ҳовлимда қулупнай етиштираман. Етиштирилган ҳосилни маҳалламдаги кўчада сотганим учун солиқ тўлашим керакми?

Барно Музаффарова, Нурафшон тумани

– Йўқ, тўламайсиз. Солиқ кодексининг 378-моддасига асосан, уй хўжалигида деҳқончилик маҳсулотларини табиий ва қайта ишланган ҳолда сотишдан олинадиган даромадлар бўйича имтиёз берилган бўлиб, бунда мазкур даромаддан жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ушлаб қолинмайди.

Алишер Расулов, ҳуқуқшунос-маслаҳатчи

– «Сўнгги қўнғироқ» тадбирларини ўтказишга айрим чекловлар белгиланганлиги ҳақида эшитдим. Айнан қандай чекловлар белгиланган?

Гулмира Абдуазимова, Беруний тумани

– Бу йил «Сўнгги қўнғироқ» тадбирлари 25 май куни соат 8:00 дан 9:00 гача фақатгина 1, 4, 9, 11-синф ўқувчилари иштирокида ташкил этилади. 2023-2024 ўқув йилини якунлаш ва «Сўнгги қўнғироқ» тадбирларини ўтказиш давомида ўқувчиларнинг турли ресторан, кафелар ва хонадонларда «Битирув оқшомлари»ни ўтказиш, босқичли назорат имтиҳонлари ва якуний давлат аттестацияларини ўтказишда, таълим муассасаларини янги ўқув йилига тайёрлаш борасида ўқувчи ва битирувчилар ҳамда уларнинг ота-оналаридан турли пул маблағларини йиғиш, битирув тадбирларида ўқувчилардан қимматбаҳо совғалар учун пул йиғиш, битирув кечаларига атаб қиммат кийимлар олиш, енгил автомашиналарда сайр ташкил этиш, гуруҳ-гуруҳ бўлиб хиёбонлар, истироҳат боғлари ҳамда чўмилиш ҳавзаларига боришлари тақиқланади.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

– Жамоат жойларида сигарета чекиш жавобгарликка сабаб бўладими? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Санжар Акбаров, Боёвут тумани

– Ҳа, бўлади. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 56 прим 1-моддасига кўра, иш жойлари, соғлиқни сақлаш, таълим, спорт-соғломлаштириш муассасалари, ёнғин чиқиш хавфи бўлган жойлар, шу жумладан автомобилларга ёқилғи қуйиш шохобчалари ва бошқа жамоат жойларида сигарета чекиш базавий ҳисоблаш миқдорининг учдан бир қисми (113 300 сўм) миқдорида жарима солишга сабаб бўлади.

Юрист блогер расмий телеграм канали

– Хорижга чиқиш биометрик паспортимнинг амал қилиш муддати яқинда тугайди. Муддат тугашидан қанча вақт олдин уни алмаштиришим керак?

Анвар Ҳожиев, тадбиркор

– Ўзбекистон Республикасидан ташқарига чиқиб кетилаётганда хорижга чиқиш биометрик паспортининг амал қилиш муддати бир йилдан кам бўлган тақдирда алмаштирилиши мумкин.

Райҳона Кенжаева, ҳуқуқшунос

– Хорижий фуқароларни вақтинча рўйхатдан ўтказиш учун қандай ҳужжатлар талаб этилади?

Ойша Қодирова, ўқитувчи

– Хорижий фуқароларни вақтинча рўйхатдан ўтказиш учун:
- белгиланган шаклдаги илтимоснома;
- қабул қилувчи ташкилотнинг белгиланган шаклдаги илтимосномаси;
- миллий паспорт ёки фуқаролиги йўқ шахс учун ҳужжат;
- уй-жой эгасининг вақтинча рўйхатдан ўтказишга ёзма розилиги ва уй-жойга бўлган ҳуқуқини белгиловчи ҳужжатлар;
- давлат божи тўланганлиги ҳақидаги квитанциялар талаб қилинади.

Ахмад Норқулов, ҳуқуқшунос-маслаҳатчи

– Уйдан чиқмаган ҳолда қандай қилиб пенсия миқдорини билиш мумкин? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Сардор Миржонов, Бухоро вилояти

– Бугунги кунда Пенсия жамғармасининг @pensiyauzbot телеграм боти орқали пенсия миқдорини билиш имконияти ишлаб чиқилган. Бунинг учун дастлаб телеграм мессенжерида @pensiyauzbot ботига кирилади ва "Пенсия суммаси" тугмаси босилади. Кейинги босқичда қайси йил ва ойнинг пенсия миқдорини билиш тугмалари пенсионер томонидан танланади. Шундан сўнг бот автоматик равишда пенсионернинг пенсия миқдори тўғрисидаги маълумотни тақдим этади. Ботдан фойдаланиш учун пенсионернинг мобил телефон рақами SMS-Пенсия хизматига уланган бўлиши керак.

– Субсидия олмоқчи эдим. Аризалар қачонгача қабул қилинади? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Зафаржон Истамов, Хоразм вилояти

– Ипотека кредитига Давлат субсидиясини олиш учун аризалар жорий йилнинг 15 майидан 1 ноябрига қадар қабул қилинади. Аризаларни шахсий компьютер ёки уяли алоқа воситасидан фойдаланиб, Ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz) орқали юбориш мумкин. Аризаларни қабул қилиш ва кўриб чиқиш бепул.

Subsidiya Markazi расмий телеграм канали

Ўзимни ўзим ўзгартиришим керак...

Ватан

Гоҳо сурункали тушлар чарчатса,
арвоҳлар – безовта қушлар чарчатса,
муҳташам саройлар, кўшклар чарчатса,
қишлоғингнинг мозорлари даводир.

Ўзга юрт баҳори баъзан татимас,
хазонрез фаслдай тўзгай мусофир.
Ичиккан кўнгилга жаннат эм эмас,
ўз уйингнинг деворлари даводир!..

МАШРАБОНА

Малҳам йўқ замонда
бемор бўлмоқ ёмондур.
Илҳом йўқ замонда
бедор бўлмоқ ёмондур.

Йўл – зерикиш, тил – қарғиш,
дил – бўм-бўшу, гуллар – ниш.
Санам йўқ замонда
хуштор бўлмоқ ёмондур.

Бошингга уриб гурзу,
пойингга қуярлар сув.
Қасам йўқ замонда
саркор бўлмоқ ёмондур.

Икки дунёйинг – бир пул,
тортқилайдилар ўнг-сўл.
Ҳакам йўқ замонда
бозор бўлмоқ ёмондур.

Қадрингга йиғламаслар,
қабрингда йиғламаслар.
Мотам йўқ замонда
мозор бўлмоқ ёмондур.

Ҳеч бир касга ялинма,
ҳаргиз пастга ялинма.
Ҳотам йўқ замонда
қарздор бўлмоқ ёмондур.

Оламни фош қилгани –
Ғуломнинг фош бўлгани.
Мубҳам йўқ замонда
ошкор бўлмоқ ёмондур...

***

Қошларидан саф-саф киприклар отган
ҳусн лашкарининг сувораси – Сен.
Саф-саф киприкларинг жонига ботган,
ҳаёт ва мамотнинг овораси – мен.

Сен – ўша, ҳолимни сўрмаган,
оғзининг нуқтаси мавҳум бир пари.
Мен эса – ёдингсиз юрмаган,
Сенинг хаёлингга суянган қари.

Сен – менинг кўнглимда бинойи –
бинолардан бино бўлган Рим;
дунёнинг тўрт буржидан доим
Сенга олиб келгай йўлларим.

Сен – сажжода узра айтилар
муқаддас ва гўзал бир сура.
Мен – бир дайди;
ўҳ, мен дайди-я,
қўймадимми Сени алжираб...

СОҒИНЧ ЧИЗГИЛАРИ

Қичқиради хўроз ҳовлида,
зар ёғади куз қуёшидан.
Қўлларида косов, волидам,
куймаланар ўчоқ бошида.

Соғингандан сарғайибди боғ,
илинжларни ичар жўяклар.
Дарахтларда ҳар ялангоч шох –
ҳижрон ғажиб кетган суяклар.

Кўзёшларин кўрдим узумнинг,
айрилиқдан бағри хун – анор.
Мезонларга осдим ўзимни,
сузиб кетди мен осилган дор...

Хайриятки, мумкин суйинмоқ,
йиғлашга бор имконларим-да.
Ота макон, ўҳ, она тупроқ,
қолдирмагил ҳижронларингда...

***

Тун. Эски шаҳарда адашиб қолдим.
Майхонадан қувилган мастдай –
бошимга тўнкариб ойни – сополни,
кўҳна оламларда дайдидим аста.

Мен Эски шаҳарда адашиб қолдим.
Ҳастимомда ухлар азон овози.
Олислардан дилга ёғдулар солди,
ёнимдан танимай ўтди-ку мозий.

Ёхуд мен танимай қолдимми?..
Кеча –
елкамни қисган ул долонлар қайда?..
Қаршимда ястанди чороғон кўча,
Теграмда
шаҳристон балқиди ойдай.

Мен Эски шаҳарда адашиб қолдим...

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi
Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 263.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 521
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 03:20

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456